

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
MAGISTRATURA BO'LIMI**

“O'zbekiston tarixi” kafedrasи

YUSUPOVA IQBOL BAXODIROVNA

**O'RTA ASR NUMIZMATIK MATERIALLARNING JAMIYAT
IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTINI O'RGANISHDAGI AHAMIYATI**

magistrlik darajasini olish uchun tayyorlangan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:
Tarix fanlari nomzodi,
dotsent **R.QARSHIYEV**

Navoiy – 2013 yil

O’RTA ASR NUMIZMATIK MATERIALLARNING JAMIYAT IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTINI O’RGANISHDAGI AHAMIYATI

REJA:

KIRISH

1. BOB. TARIX VA NUMIZMATIKA FANI

- 1.1. Numizmatika fanining o’rganiishi tarixi, maqsadi va vazifalari.**
- 1.2. Jahon tarixini o’rganishda numizmatikaning ahamiyati**
- 1.3. Ilk o’rta asrlarda O’rta Osiyo va Yevropada iqtisodiy savdo munosabatlarining kengayishida numizmatikaning o’rni**

2. BOB. O’RTA ASR SHARQ JAMIYATINING IJTIMOIY-IQTISODIY TARAQQIYOTIDA NUMIZMATIKANING O’RNI.

- 2.1. Ilk va o’rta asrlarda O’rta Osiyo numizmatikasi**
- 2.2. Amir Temur va temuriylar davri ijtimoiy-iqtisodiy tarixida numizmatika**

3. BOB. XONLIKlar DAVRIDA NUMIZMATIKA

- 3.1. O’rta Osiyo xonliklarida zarb qilingan tangalar**
- 3.2. Zamonaviy numizmatika va uning vazifalari**

XULOSA

ILOVALAR

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

K I R I S H

Bu yil biz xalqimiz asrlar davomida orziqib kutgan istiqlolning 22 yillik qutlug' bayramini keng nishonlaymiz. O'tgan davr tarix uchun g'oyat qisqa fursat bo'lsada, shu vaqt mobaynida biz o'z oddimizga qo'ygan yuksak marralarga erishish, ezgu maqsadlarimizni amalga oshirish borasida xalqimizning fidokorona mehnati tufayli har yili o'n, balki yuz yillarga teng bo'lган ulkan tarixiy yo'lни bosib o'tdik.

SHu o'tgan davr mobaynida diyorimizda tinchlik osoyishtalik va barqarorlikni mustahkamlash, davlat va jamiyat qurilishi, sud-xuquq tizimi va iqtisodiyot sohasini erkinlashtirish, ona zaminimiz boyliklaridan el yurtimiz va kelgusi avlodlar manfaati yo'lida oqilona foydalanish, mamlakatimizning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini yuksaltirish bo'yicha qo'lga kiritgan salmoqli natijalarimiz nafaqat bugungi kun, balki yorug' va farovon kelajagimiz uchun poydevor bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston mustaqillikka erishganiga 22 yil bo'lmoqda. SHu vaqt ichida O'zbekistonda misli ko'rilmagan o'zgarishlar sodir bo'ldi. Xalqimiz jipslashdi, tinch-totuvlik hukm surmoqda. Davlatimiz poydevori mustahkamlanib, O'zbekiston jahon miqyosiga chiqdi. Bugungi O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotda muhim islohotlarni amalga oshira borib, taraqqiyot va buyuk kelajak sari dadil odimlamoqda. O'tgan vaqt mobaynida siyosiy tizimdan tortib iqtisodiyotning barcha tarmoqlari, jumladan, ma'naviyat tubdan o'zgardi. Biz ochiq bozor iqtisodiyotiga va kuchli ijtimoiy himoya tizimiga ega bo'lган huquqiy demokratik va dunyoviy davlat, erkin fuqarolik jamiyatni barpo etish yo'lidan dadil odimlayapmiz.

Hur O'zbekiston jamiyatni isloh qilishning ilgarigi holatidan demokratik huquqiy jamiyat va bozor iqtisodiyoti qadriyatlariga o'tishning o'ziga xos yo'lini tanlab oldi.

Mavzuning dolzarbliji. Mamlakatimizning o’z mustaqilligini qo’lga kiritganligi xalqimiz taraqqiyoti uchun katta imkoniyatlar yaratdi. O’tgan mustaqillik yillari tarixan kichik vaqt ni tashkil qilgan bo’lishiga qaramasdan, mamlakatimizda iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-ma’rifiy sohalarda amalga oshirilgan vazifalar ko’lami nihoyatda katta bo’ldi. Ularning zaminida esa o’zbek xalqining mavjud imkoniyatlari, manfaatlari, xususiyatlari va mentalitetidan kelib chiqqan xolda o’ziga mos taraqqiyot yo’lining to’g’ri tanlagani turibdi. Prezidentimiz Islom Karimov mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq taraqqiyotimizning nazariy asoslarini ishlab chiqar ekan, unda pirovard maqsadimizni ham ko’rsatib berdi. U “Barqaror bozor iqtisodiyoti, ochiq tashqi siyosatga asoslangan kuchli demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish pirovard maqsad bo’lib qolishi kerak”¹ligini belgilab berdi. Xuddi ana shu yo’l mamlakatimizda nafaqat iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy sohalarda islohotlarni amalga oshirishda, shuningdek, milliy-ma’naviy tiklanish jarayonining jadal sur’atlarda rivojlantirishi uchun ham amaliy ahamiyatga molik bo’ldi. CHunki, belgilab berilgan yo’l tufayligina xalqimiz erkin nafas ola boshladi, asrlar davomida yaratilib kelingan milliy-ma’naviy imkoniyatlarini yuzaga chiqara boshladi. O’tmishda toptalgan urf-odat, an’ana, qadriyatlarni tiklay boshladi.

Prezidentimiz ana shu jarayonning o’zaro uyg’unligini “Biz ma’naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o’zlikni anglashning o’sishidan, xalqning ma’naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb, hisoblaymiz”¹, - deb ko’rsatib berdi.

Mustaqilligimiz tufayli Ta’lim sohasiga alohida e’tibor qaratildi. Jumladan 1997 yilda qabul qilingan “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun (YAngi

¹ Karimov I.A. O’zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent.:O’zbekiston, 1999, 9-bet.

¹ Karimov I.A. O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O’zbekiston, 1997. 137-bet.

tahrirda)va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” O’zbekistonning ta’lim sohasida ijobiy samara va amaliy siljishni yuzaga keltirdi.

Jumladan, “Bir fikrni mammuniyat bilan ta’kidlamoqchiman – biz ta’lim sohasini bosqichma-bosqich, aniq maqsadga yo’naltirgan holda isloh qilish bo’yicha uzoqni ko’zlagan dasturlarniizchil amalga oshirib kelmoqdamiz. Buning natijasida yoshlarimizning eng yuksak talablardarajasida umumiyligi bilan bir qatorda ularning o’z qobiliyatini ro’yobga chiqarishi, jamiyatda munosib o’rin egallashi uchun aniq mutaxasislikka ega bo’lish imkonini beradigan yaxlit, uzlusiz ta’lim-tarbiya tizimini yaratdik.

Bu vazifalarni hal etish uchun Kadrlar tayyorlash va Maktab ta’limini rivojlantirish umumilliy dasturlari doirasida o’tgan davr mobaynida yurtimizdagagi ta’lim muassasalari – maktablar, litsey va kollejlarning zamonaviy moddiy-texnik va o’quv bazasini shakllantirish va mustahkamlash, ta’lim-tarbiya jarayoniga yangi standartlar, ilg’or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish borasida ko’lami va ma’no-mazmuniga ko’ra haqiqatan ham ulkan ishlarni amalga oshirdik”², - deb ta’kidladi Islom Karimov.

Bugungi kunda maktab va Oliy ta’limda tarix fanlari mukammal ishlab chiqilgan reja asosida o’tilmoqda. Oliy ta’lim muassasalarida “Yordamchi tarix fanlari” o’qitiladi. Yordamchi tarix fanlari tarix fanini o’rganishda yordamchi manbalar hisoblanadi. Bu fan tarix fanining yordamchi sohalari bo’lmish: poleografiya, diplomatika, genalogiya geroldika, sfragistik, epigrafika, numizmatika, metrologiya va xronologiya buyruqlariga tayanadi. Shular asosida tarixiy voqealarni mohiyatini haqqoniy, holisona yoritishga ko’maklashadi.

“Numizmatika” so’zi grekcha “nomisma”-ya`ni tanga pul yoki chaqa pul degan ma`noni anglatadi. Tangashunoslik oltin, kumush va misdan

² Karimov I.A. Inson manfaatlari ustuvorligini ta’minlash – barcha islohot va o’zgarishlarimizning bosh maqsadidir.
– T.: O’zbekiston, 2008. 35-bet.

ishlangan metall pullarni o'rganish xaqidagi fandir. Ushbu soxaga bundan tashqari yana **qog'oz pullarni o'rganish (bonistika)va orden, medal xamda shu xildagi esdalik tamg'alarmi (znachoklar)forestika**) o'rganish xam kiradi.

By fan arxeologiya bilan aloqador fanlar jumlasidandir. Numizmatika fani arxeologiyaga yordam beradi.

Tangashunoslik bilan qiziquvchilar doirasi birdaniga kengaygan emas, tanga chaqa pullarni to'plash ilmiy numizmatika tomon dastlabki qadam bo'ldi. Kolleksiya to'plash mazkur fanning rivojlanishiga katta turki bo'ldi.

Bundan bir necha yil muqaddam insonlar tanga va chaqa pullar bilan qiziqqanlar. Unga biron narsa sotib olish nuqtai nazaridan emas, balki o'sha tangalarga qarab o'tmish davrni, bu pullarning qachon zarb qilinganligini bilishga xarakat qilish nuqtai nazaridan qiziqqanlar.

Qadimshunos va tarixchi olimlarimizning tadqiqotlaridan ko'rilib turibdiki, Numizmatika fani yordamida biz nafaqat tangalarning qiymati, yozuvlari, og'irligi kabi unsurlarni , qolaversa tanga va pullarning kishilik jamiyat , turmush hayoti, jamiyat va davlat siyosiy hayotidagi o'rni , mavqeい, ahamiyatini ham bilish imkoniyatini beradi. Uzbekiston hududlarida kadimdan tangalar arb qilish markazlari vujudga kelgan va asrlar davomida shakllanib borgan.

Magistrlik dissertatsiyasida ana shu va boshqa savollarga javob berishga harakat qilingan va bu mavzuning dolzarbligini ham belgilab beradi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Numizmatika fanini rivojlanishida avvalo, tangashunos kolleksionerlarning o'rni alohida bo'lgan. SHu sababli ushbu mavzuni ilk bor ana shu kolleksionerlar o'rgangan desak xato bo'lmaydi.

Kollektsionerlar turli zamon va davrlardagi tanga, chaqa pullarni yig'ib ularni kataloglarini (ro'yxatlari) tuzganlar va xar qaysisini alovida tarzda ta`rifini yozganlar. Ularning ko'pchiligi qadimgi tillarni bilganliklaridan tanga chaqalardagi xatlarni o'qishga xarakat qilganlar. Ayrim kollektcionerlar to'plagan tangalarini bir joyga to'plab umumiy kolleksiya tashkil etganlar. Qirollar va imperatorlar qimmatbaxo tangalarni davlat xazinasidan ajratib olib maxsus **myuntskabinetlar** (*tangalarni saqllovchi xonalar*) tashkil etganlar, xamda ularni o'rganish va ularga tartib berish uchun olimlarni jalg etganlar. Xozirgi kunda Angliya, Frantsiya, Sankt-Peterburg, Vena, Berlin kabi mamlakat shaxarlarida jaxondagi yirik yig'ma koolektsiyalar mavjud.

Dastlabki tangashunoslikning izlanishlari natijasida ilk bor 14 asrda Andreo Ful'vionning yunon va rim tangalari ifodalangan "**Taniqli kishilar tasviri**" nomli kitobi nashr etildi. Ushbu kitob mashxur xukmdorlarning tasviri va ularning xayoti xaqida qisqacha ma'lumot bergenligi bilan mazkur tadqiqot qiziqish uyg'otdi. Keyinchalik 1553 yili Gil'oma Rud "**Dunyo yaratilgandan buyon yashagan taniqli kishilarning tangalardagi xayoti va faoliyati xaqida qisqacha ma'lumot**" nomli kitobini o'quvchilarga taqdim etdi. Bu adabiyotlar 16 asrda juda katta nufuzga ega bo'lgan. Tangashunoslik ilmi kashshoflarini 14-16 asrlarda tangalardagi xukmdorlar qiyofasi va tarjimai xoli qiziqtirgan bo'lsa, 18 asrda bu fanni ilmiy nuqtai nazardan rivojlantirish katta axamiyat kasb etdi. Avstraliyalik ruxoniy Iosif-Ilariy Ekkel (1738-98) sakkiz jilddan iborat "**Qadimgi tangalar ilmi**" nomli kitobida 70 mingdan ziyod tangalarga tartib berdi. Aniqlay olmagan tangalar xaqida xech qanday faraz qilmagan, ularni noma'lumlar qatoriga qo'shib qo'ygan, ko'p mamlakatlarni tanga turlarini aniqlay olmagan.

XVIII asrda sharqiy numiematikada bir necha ming tanga pul bo'lgan, ammo ularni shu vaqtga qadar tadqiq qiluvchi bo'lmagan.

Rossiya FA akademigi Xristian Martin Fren sharqiy numizmatikaga asos solgan kishidir. U Qozonda yashab Oltin O’rda xonlari tomonidan zarb qilingan tangalarni o’rganish uchun juda boy manbaga ega bo’lgan. Fren nemis bo’lganligi uchun tez orada Germaniyaga chaqirishgan, yo’l-yo’lakay Peterburgda to’xtagan, u erda fanlar akademiyasida to’plangan tangalarni ko’rgach, tashlab keta olmagan, butunlay Rossiyada qolib butun umrini sharq tanga pullarini o’rganishga bag’ishlagan.

Pyotr 1 tomonidan Peterburgda tashkil etilgan muzey kunskamerada boshqa eksponatlar bilan birga tanga pul va medallardan xam katta kollektsiya to’plagan. Kunskamerada doim o’z kollektsiyasni to’lg’azib turgan, to’plangan tanga pullarni tartibga solgan. Undagi qimmatbaxo pullar kollektsiyasi xozirgi vaqtda Davlat ermitajida joylashtirilgan, bu kollektsiya dunyodagi eng katta kollektsiyalardan biri xisoblanadi, xisobida 300 mingta tanga pul bor.

Bundan tashqari O’rta Osiyo numizmatikasi tadqiqotchilarini orasida M.E.Masson, V.A.Mishkin, E.A.Davidovichlar salmoqli o’rin egallaydilar. Ular qadimgi O’rta Osiyo tanga pullarini aniqlab turlarga ajratdilar va zarb qilish ishidagi rivojlanishning asosiy bosqichini belgiladilar.

SHuningdek, O’zbekistonda ham numizmatika bilan shug’ullangan va bir qator asarlar yaratgan olimlar bor. Ayupova F. (“Qadimiy tangalar”), Rtveladze E. (“Drevnye monety Sredney Azii”), G’ulomov YA. “Qadimgi madaniyatimiz izlaridan”, Ernazarova T., Kognev R. “Tangalar o’tmish darakchilari”, S.Eshonxonov (“Numizmatika kolleksiyalari”), G’.Olimov (“Samoniylar va Qoraxoniylar davri tangalari katalogi”), I.Tuxliyev (“SHarqiy Turkiston tangalari”) va boshqalar shular jumlasidan.

Dissertatsiyaning ilmiy hamda amaliy ahamiyati shundaki, mamlakatimizdagi nafaqat Oliy o’quv yurtlari talabalari, balki umumiyligida ta’lim maktablari hamda o’rta maxsus ta’lim o’quvchilariga ham tarix darslari davomida numizmatika (tangashunoslik) fanini tushuntirib borish

maqsadga muvofiqdir. Zero, yer yuzida paydo bo'lgan har qanda davlat bor ekan uning iqtisodiy jihatini, savdo munosabatlarini, qolaversa madaniyatini namoyon qiladigan belgilardan biri bu tanga (pul)dir. Vaholangki, agarda davlatda pul birligi bo'lmas ekan, uning yagonaligi, uning yaxlitligi. Uning erkin savdo munosabatlarida ishtirok eta olmasligi tabiiydir. Ana shu maqsadda jahon tarixi fanlari jarayonida o'qsuvchilar ongiga numizmatika fanidan namunalar o'qitilsa o'quvchilar tafakkurining yanada teranlashishiga sabab bo'ladi.

Ishning manbaviy bazasi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, Qarorlari, mahalliy va chet el adabiyotlari, ommaviy axborot vositalari manbalari va boshqa ilmiy asarlar tashkil qiladi.

Ishning tarkibiy tuzilishi, dissertatsiya ishi 3 bob, 8 paragraf, ilovalar, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

1. BOB. TARIX VA NUMIZMATIKA FANI

1.1. Numizmatika fanining o'rganiishi tarixi, maqsadi va vazifalari.

O'zbekiston mustaqillikka erishganligi tufayli, jamiyatimizning xamma soxalarida jiddiy o'zgarishlar davri boshlandi. SHu jumladan tarix fani oldida xam yangi yangi muammolar ilmiy izlanishlarni taqozo qilmokda.

Tarix fanining yordamchi soxalari ichida o'z o'rniغا ega bo'lgan numizmatika, mamlakatimiz Istiqlolga erishgandan keyin uning nufuzi yanada ortdi, mustaqil tarix fani sifatidagi maqomga ega bo'ldi.

CHunki tariximizni o'rganishda tangashunoslik fanining axamiyati beqiyosdir. Tangalar bizga eramizdan avvalgi davrdan to xozirgi kungacha bo'lib o'tgan tarixiy voqealar siyosiy iqtisodiy, ayrim xollarda esa millatlarning e'tiqodiy dunyoqarashlari xaqida ma'lumot baeradi.

Kollektsionerlar turli zamon va davrlardagi tanga, chaqa pullarni yig'ib ularni kataloglarini (ro'yxatlari) tuzganlar va xar qaysisini aloxida tarzda ta`rifini yozganlar. Ularning ko'pchiligi qadimgi tillarni bilganliklaridan tanga chaqalardagi xatlarni o'qishga xarakat qilganlar. Ayrim kollektcionerlar to'plagan tangalarini bir joyga to'plab umumiyl kollektiya tashkil etganlar.

G'arbiy Evropa xukmdorlari san`at axli tangalarni boylik sifatida to'plashlari natijasida u erdag'i davlat xazinalarida turli xil mamlakatlarning tangalari yig'ilib bordi.

Tangalarni yig'ish XIV asrlardan boshlab asta-sekin odat tusiga kirdi. Qirollar va imperatorlar qimmatbaxo tangalarni davlat xazinasidan ajratib olib maxsus **myuntskabinetlar** (*tangalarni saqlovchi xonalar*) tashkil etganlar, xamda ularni o'rganish va ularga tartib berish uchun olimlarni jalb etganlar. Xozirgi kunda Angliya, Frantsiya, Sankt-Peterburg, Vena, Berlin kabi mamlakat shaxarlarida jaxondagi yirik yig'ma koolektsiyalar mavjud.

Dastlabki tangashunoslikning izlanishlari natijasida ilk bor 14 asrda Andreo Ful'vionning yunon va rim tangalari ifodalangan "**Taniqli kishilar tasviri**" nomli kitobi nashr etildi. Ushbu kitob mashxur xukmdorlarning tasviri va ularning xayoti xaqida qisqacha ma'lumot bergenligi bilan mazkur tadqiqot qiziqish uyg'otdi. Keyinchalik 1553 yili Gil'oma Rud "**Dunyo yaratilgandan buyon yashagan taniqli kishilarning tangalardagi xayoti va faoliyati xaqida qisqacha ma'lumot**" nomli kitobini o'quvchilarga taqdim etdi. Bu adabiyotlar 16 asrda juda katta nufuzga ega bo'lgan. Tangashunoslik ilmi kashshoflarini 14-16 asrlarda tangalardagi xukmdorlar qiyofasi va tarjimai xoli qiziqtirgan bo'lsa, 18 asrda bu fanni ilmiy nuqtai nazardan rivojlantirish katta axamiyat kasb etdi. Avstraliyalik ruxoni Iosif-Ilariy Ekkel (1738-98) sakkiz jilddan iborat "**Qadimgi tangalar ilmi**" nomli kitobida 70 mingdan ziyod tangalarga tartib berdi. Aniqlay olmagan tangalar xaqida xech qanday faraz qilmagan, ularni noma'lumlar qatoriga qo'shib qo'ygan, ko'p mamlakatlarni tanga turlarini aniqlay olmagan.

18 asrda sharqiy numiematikada bir necha ming tanga pul bo'lgan, ammo ularni shu vaqtga qadar tadqiq qiluvchi bo'lмаган. Rossiya FA akademigi Xristian Martin Fren sharqiy numizmatikaga asos solgan kishidir. U Qozonda yashab Oltin O'rda xonlari tomonidan zarb qilingan tangalarni o'rGANISH uchun juda boy manbaga ega bo'lgan. Fren nemis bo'lganligi uchun tez orada Germaniyaga chaqirishgan, yo'l-yo'lakay Peterburgda to'xtagan, u erda fanlar akademiyasida to'plangan tangalarni ko'rgach, tashlab keta olmagan, butunlay Rossiyada qolib butun umrini sharq tanga pullarini o'rGANISHGA bag'ishlagan.

Pyotr 1 tomonidan Peterburgda tashkil etilgan muzey kunskamerada boshqa eksponatlar bilan birga tanga pul va medallardan xam katta kolleksiya to'plagan. Kunskamerada doim o'z kollektiyasni to'lg'azib turgan, to'plangan tanga pullarni tartibga solgan. Undagi qimmatbaxo

pullar kollektiyasi xozirgi vaqtida Davlat ermitajida joylashtirilgan, bu kollektiya dunyodagi eng katta kollektiyalardan biri xisoblanadi, xisobida 300 mingta tanga pul bor.

Bundan tashqari O'rta Osiyo numizmatikasi tadqiqotchilar orasida M.E.Masson, V.A.Mishkin, E.A.Davidovichlar salmoqli o'rin egallaydilar. Ular qadimgi O'rta Osiyo tanga pullarini aniqlab turlarga ajratdilar va zarb qilish ishidagi rivojlanishning asosiy bosqichini belgiladilar.

Qadimshunos odimlar er kurrasidagi dastlabki savdo muomalasi ibtidoiy jamoa tuzumining tosh asridan boshlanganligini isbotlaydilar. Ularning ta'kidlashlaricha inson o'z mexnatining maxsulotlarini ayirboshlash natijasida savdo-sotiqning ilk va sodda to'rini vujudga keltirdi. Tanqis ashylarni pul o'rnida ayirbosh qila boshladi. Bunday tovar pul muomalalari mintaqalarda turli ko'rinishda amalga oshirilgan. mas,: Osiyo va Afrikada kauri nomli chig'anoqlar pul vazifasini o'tganligi ma'lum.

Ular ayrim elatlarda qadimdan, ya`ii ibtidoiy jamoa tuzumidan milodiy XX asrgacha savdo vositasi bo'lib kelgan. Mas,: *bu chig'anoqlar kadimiyl Xitoy, Yaponiya, Xindiston shaxarlarida ancha vaqtgacha muomalada qadrlangan. VI-VII asrlarda Germaniyada, 9- asrda SHvetsiyada, 16-asrda Riga shaxrida ishlatilganligi, Gvineyada xam kauri tasviri tushirilgan pullar mavjud bo'lganligi aniqlangan.*

Bundan tashqari insonlar orasida jonliq qoramol yoki xarsanglar keyinchalik itlarning tishi, cho'chka go'shti, ma'dan parchasi singari narsalar xam savdo vositasi sifatida qo'llanilgan. Odamzot o'zi uchun qulay pul shaklini ixtiro etguniga qadar mazkur "pul"larni tabiatdan olib savdo vositasi sifatida ishlatib turgan. Vaqt kelib inson ma`dandan ishlangan pul-parchaning engillagini va o'z yonida olib yurishga qulayligini xisobga olib sof ma`danli quymalarni ayirbosh qilishga o'tadi. Bunday pul birligi

qadimgi Ikki daryo oralig'i va Misrda paydo bo'lib, shu davrdan e'tiboran inson xayotiga "**tanga**" xolatida kirib keldi.

Ammo bu quymalarni insonlar qalbakilalshtira boshlaydilar. Qattiq jazo choralariga qaramay bunday xol davom etaverGANI sababli, xukmdorlar o'z quymalarini muxrlashga, ya`ni ularda biror-tasvirni yoki tug'rolar-gerblarni ifodalashga odatlandilarki, bu bilan quymalar xaqiqiyligi davlat tomonidan kafolatlanadigan bo'ldi.

Qadimiy tarixchilar Gerodot va Ksenofont asarlaridan ma'lumki, ilk tangalar oltin va kumushdan bo'lib, Kichik Osiyodagi Midiyaliklar tomonidan miloddan avvalgi 7-asrda zarb etilgan. Ammo YUnionistondagi egina shaxrida, Xitoy va Xindistonda maxsus tangalar zarb etish ixtiro qilindi. Ularning ko'rinishi juda sodda bo'lib, dastlab ayrim chizgilar bilan bezatilgan, so'ngra turli jonzotlarni (*toshbaqa, ukki, dengiz mushugi, baliq va xokazolarni*) tasvirlashga o'tilgan. Bunda aks ettirilgan jonzot, uning shaxar tug'rosi yoki nomi bilan xamoxangligidan kelib chiqib ish tutilgan. Keyinchalik iloxlar va bazilevelar tasviri ifodalangan tangalarni "**moneta**" deb nomlay boshlaganlar. Qadimgi Rim davlatida YUNona deb nomlangan ilox bo'lib, "**moneta**" uning xislatlaridan biri miloddan avvalgi 45-yillarda Tita Kariziy tomonidan nozik bir ayol tasviri tushirilgan tanga zarb etildi. Tasvir ortida "**moneta**" degan lotincha so'z zarblangan bo'lib "**bashoratchi**" degan ma`noni anglatar edi. SHu davrdan boshlab tangalar moneta deb yuritiladigan bo'ldi. Evropaning G'arb bilan sharqga kirib kelgan bu so'z rusiyzabon insonlar o'sha tilida keng qo'llanila boshlandi.

Xozirgi kunda jaxon bozorida turli xil tanga va pul birliklarining nomlarini uchratish mumkin. Qadimda **Tetradraxma**, **draxma**, **gemidraxma**, **obol**, **dinor**, **dirxam**, **lira** va xokazo nomli tangalar mavjud bo'lgan. Bu nomlarning kelib chiqishi xam bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Mas,: *YUNon draxmalaridan sharqiy dirxam, rim dinariylaridan dinor va boshqa shu kabi pul nomlari xosil bo'lganligi xammaga ma'lum.*

Qadimgi tangalar ikki xil: 1) quyma. 2) zarblangan uslubda tayyorlangan, quyma tangalar maxsus shakl va tasvir o'yilgan qolip idishlarga ma`dan quyib tayyorlangan. Ikkinchisi esa temir yoki bronzadan ishlangan **muxr - shtempelda** (*tanganing o'ngi va tersi naqsh etilgan maxsus asbobda*) tangalar ifodasi tayyorlanib, kerakli metall quymasi ustiga zarblangan. Birinchi uslubda tanga satxidagi tasvir noaniq bo'lganligidan tezda o'chib ketishi sababli miloddan avvalgi 7-asrga kelib zarblangan tangalar keng miqyosda qo'llaniladigan bo'ldi va shundan buyon tangalar faqat zarblangan xolda muomalaga chiqarib kelinmoqda.

Tanga – bu aniq ko'rinishga keltirilgan, og'irlilikka, sifatli tarkibga, qiymatga va qadrga ega bulgan metall kotishmadir.

Tanga – iktisodiy xayotda tovar-pul munosabatlarini tartibga soladi. Tarixiy tarakkiyat natijasida kishilar xayotida tangalar va pullar katta axamiyatga ega bulgan. Kadimda metall tangalar bulmasada, kishilar tanga urniga turli tovarlar, jismlardan (xayvonlar, takinchoklar, metall kurollar, kiyimlar, xatto ismlar) tovar ayirboshlangan. (*ilovaga karang*)

«Bilishimizcha...lidiyaliklar eng birinchi bulib tanga zarb etishgan xamda oltin va kumush tangalarni muomalaga kiritishgan...»¹(GERODOT)

Ilk tangalar eramizdan avvalgi VIII-VII asrlarda Kichik Osiyo davlati Lidiyada va Egina davlatida zerb kilingan. Tanga zerb kilish Xitoy, Xindistionda xam ilgaridan paydo bulgan. Keyinchalik Elladada, Italiyada va Eronga tarkalgan.

Bonistika – qog'oz pullarni o'rganuvchi yordamchi tarix fanidir.

Ilgari tanga pul vazifasini utagan bulsa, keyinchalik uning urnini asts-sekinlik Bilan kogoz pullar egallay boshlagan. (*ilovaga karang*)

¹ E.Rtveladze. O'rta Osiyonning qadimgi tangalari. - T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987, 7-bet.

Faleristika – medallar, jetonlar, ordenlarni urganuvchi yordamchi tarix fanidir. Bonistika va faleristika yordamchi tarix fani xisoblangan Numizmatika fanining tarkibidagi yordamchi fandir. (*ilovaga karang*) (*ilovaga karang*)

O'rta asrlardan boshlab muzeylar tashkil kilingan. Numizmatika muzeylari:

Odessa numizmatika muzeyi, Ermitaj, Britaniya muzeyi, Luvr, Parij, umuman Yevropaning aksariyat mamlakatlari muzeylarida tangashunoslik zallari mavjud. Navoiy viloyat muzeyi tugrisida gapiriladi. (*ilovaga karang*)

Qadimgi Gretsiyada tanga pullarga ko'proq xudolar, ma'budalar va muqaddas xayvonlarning suratlarini carb qilganlar. Mas,: *Afina shaxrining tanga pullarida ma'buda Afina surati, Olimpia tangalarida Zevs surati carb qilingan.*

Greklar ulkan jaxon imperiyasiga asos solishi natijasida O'rta Osiyo xam uning tarkibiga kiritildi. Natijada umumiy oldi-sotdi savdosida pul joriy etildi. er. av. 293-280 yillar mobaynida Baqtriya davlatining sharqiy viloyatlari noibi Salavkaning o'g'li Antiox birinchi marta pul chiqarishga asos soldi. Grek madaniyatining yirik vakillari bo'l mish Salavkiylar tanga pullarini grek namunasi bo'yicha carb etdilar. Xususan grek tilidagi yozuvlar va podshoxning aksi tushirilgan tangalar chiqara boshladilar. Bu chiqarilgan pullarning nomlari xam turlicha edi.

Jumladan, tilla, oltindan qilingan pullar stater, kumush-pullar-tetradraxma, draxma, yarim draxma deb atalgan. Xatto pullarni og'irligi grek o'lchov birligi bo'yicha, ya'ni tetradraxmalar 16 gramm. draxmalar 4gr. ni tashkil etgan. Kundalik savdoda foydalanish uchun mo'ljallangan mis tangalar xam chiqarilgan. Grek-Baqtriya podsholigi pullari ko'pchilik xollarda Salavka an'analarini davom ettirgan. Tanganing yuza tomonida podshoni rasmi, orqa tomonida esa grek xudolaridan (Appolon, Artemida, Afina, Gerakl, Zevs, Poseydon va boshqalar) birining rasmi ifodalangan. Ammo maxalliy ta'sir xam

pul zARB qilish ishlarida sezilarli bo'lgan. Jumladan grek xudolarining ba'zi bir xususiyatlari SHarq xudolarining ba'zi jixatlariga o'xshash xolda aks ettirilgan.

Grek-Baqtriya tangalari **medal** (*medal tanga - biron ta ulug' zot, sharaflisana, qimmatchilik yoki qaxat, ochlik yillari munosabati bilan zARB etilgan tanga*). **Medal'er** – *medal' yoki tanga quyish yoki zARB etish*) yasash san'atining go'zal namunalari xisoblanadi. Kichkina yumaloq doiraga tushirilgan podsholarning rasmi bizning davrimizgacha etib kelgan o'sha xukmdorlarning yakkayu-yagona asl rasmi xisoblanadi. Bu rasmlar tarixiy shaxslarning qo'lyozma manbalarida ifoda etilmagan kiyofalari va xis-xayajonlarini aks ettiradi.

O'rta Osiyoda zARB etilgan Salavka tangalari juda oz miqdorda topilgan bo'lsa, Grek-Baqtriya tangalari esa aksincha ana shu umumiylardan ko'p qismini tashkil etadi. Grek-Baqtriya kumush tangalari xazinasi (100 donaga yaqin) Qashqadaryo vodiysining Kitob shaxri atrofidan topilan.

O'zbekiston territoriyasida XIX asr oxiri XX asr boshlarida kolleksionerlardan sotib olingan Axmoniylarning qator **dirik**-(*oltin tangalari*) va **sikllarini**-(*kumush tangalari*) sotib olinishi Axmoniylar davriga mansub tilla va kumush pullarni So'g'd va Baqtriyaga kirib kelganligidan dalolat beradi.

Gerodotni yozib qoldirgan ma'lumotlarga ko'ra So'g'd, Xrazm, Baqtriya Axmoniylarga **talant** - **ya`ni pul** birligida o'lpon to'laganlar.

Metalldan ishlangan pul tanga chaqalarning paydo bo'lishi insoniyat tarixidagi muxim voqealardan biridir. Ma'lumki, jamiyat iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishkning yujsak darajaga erishgandagina tanga chaqalar kashf etilishi mumkin. Dastlabki tanga chaqalar miloddan avvalgi VII asrda Kichik Osiyoda paydo bo'ldi.

Tanga zARB etish O'rta dengiz bo'yli mamlakatlariga tez tarqaldi. Miloddan avvalgi VI asrda esa eron va O'rta Osiyo kattagina qismini o'z ichiga olgan Axmoniylar imperiyasi tarkibiga kirib bordi. YUNON shaxarlari tanga zARB etish tarixida muayyan o'rIN-tutadi. O'rta Osiyo va YAqin SHarq noyob qazilma boyliklarini qo'lga kiritgach, Iskandar Zulqarnaynning odamlari o'z yurtlarida

tanga zARB ettirdilar va ularni butun O'RTA dengiz mamlakatlariga muomalaga kiritganlar.

Miloddan avvalgi IV asrda Aleksandr Makedonskiy Axmoniyarni barbod etib, uning vafotidan keyin tasarrufidagi erlarning sharqiy qismi Salavkaga tegdi. Axmoiylar va Makedonokiy tangalarining O'RTA Osiyoga faqat noyob nusxalari etib kelgan edi. Salavkaning o'g'li Antiox davridan boshlab O'RTA Osiyoga kumush tangalargina emas, balki mis chaqalarning xam keng ko'lamda kirib kelishi kuzatiladi. Miloddan avvalgi III asrda O'RTA Osiyoda pul muomalasi boshlanadi.

Miloddan avvalgi III asrning oxirlarida O'RTA Osiyoning o'z tangalari paydo bo'ldi. Ular Antioxning kumush tangalariga o'xshatib zARB etiladi. Tanganing old tomonidan chambarga olingan podshox byusti, orqa tomonida yuganlangan shoxli ot boshi va xukmdor nomi bitilgan ("**Podshox Antiox**") degan yozuv ko'zga tashlanadi. Bundan tashqari **monogramma** (*grek tilida mono-bir; gramma-xarf yozuv. Bu erda: tangada monogramma-tangani zARB qilgan usta xamda xukmdor ismi shariflarining jumjimador bosh xarfi*) xam bor.

Antiox asl tangalaridan uning farqi shu ediki. O'RTA Osyo tangalaridagi tasvirlarning sifati pastroq edi. YOzuvlar buzib berilgan. Ular Samarqandda zARB etilgan.

Mil.av. III asr o'rtalarida Salavkiylar xokimligini sharqiy xududlarida Grek-Baqtriya podsholigi yuzaga keldi. Grek-Baqtriya tangalari yuqori badiiy did bilan ishlangan bo'lib, xar bir tangada doira ichiga podshoxning tasviri uning ichki moxiyatini ochib beradigan tarzda zargarona san`at bilan bajarilgan. Grek-Baqtriya tangalari mamlakatimiani janubiy sarxadlari Surxondaryo viloyatida ko'p uchraydi. Buxoro voxasida Grek-Baqtriyani yirik kumush tangalarining 60 nusxdan iborat butun boshli xazinasi topilgan. By xukmdorlar ko'proq asosan kumushdan, istisno xollarda xatto mis, nikel' qotishmasidan zARB eganlar. Grek-Baqgriya tangalarining mashxurligi shunga olib keldiki. O'RTA Osiyoning ko'pgina xududlarida janubiy Amularyo bo'yalarida. Buxoro va Xorazm voxalarida o'sha tangalarga o'xshatib tangalar chiqarildi.

Milodning 1-1II asrlarida O'zbekistonning janubi, Afg'oniston xamda SHimoliy-G'arbiy Xindistonni o'z ichiga olgan jaxonshumul mamlakat bo'l mish Kushon imperiyasi tarkibiga kirgan. Zarb etilgan ilk kushon tangalarida grek-baqtriya ta'siri yaqqol sezilgan, biroq keyinroq kushonning o'zita xos aloxida tangalari paydo bo'ldi. By davrdagi tangalarda xatto Buddha tasvirini xam ko'rish mumkin. kushon tangalari Kama buylarida xam uchraydi.

Xorazmdan topilgan tangalarda lotin alfavitidagi "S" xarfiga uxshash *siyovushlar tamg'asining* borligi, bu sulola siyovushlar avlodidan bo'lган bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Mana shunday taxlitdagi kushon tangalari tarqaladi, maxalliy xar qanday tangalarni zARB qilish deyarli to'xtatiladi.

Eramizning boshlarida tashkil topgan kushonlar podsholigi yangi era boshlarida dunyo axamiyatiga ega bo'lган imperiyaga aylanishi natijasida kushon tangalarida xam grek alifbosidan foydalanish davom etdi. Keyinchalik grek alifbosida Baqtriya tilidagi so'zlar yozila boshlandi. Grek xudolarining tasviri asta-sekin maxalliy, shu jumdadon zoroastriya xudolarining tasviri bilan almashtirildi.

Anaxita (*tabiatning xosildorlik va jonlantiruvchi xuosi*), **Farro** (*boylik va podsho xukumati ramzi*), **Mitra** (*quyosh iloxiyati*) shular jumlasidandir. Agar O'rta Osiyoda kushonlar va xatto ilk kushonlar davrida xam kumush tanga zARB qilingan bo'lsa, kushon podshosi Vima Kadfiz isloxit o'tkazib, oltin tanga zARB qilishga asos soddi. SHu davrda ko'plab oltin dinorlar va boshqa tangalar chiqarildi. Mazkur tangalar xalqaro savdoda muxim o'rIN egallagan rim oltinlariga yaqin turar edi. SHu narsa diqqatga sazovorki, kushonlar davrida turli qiymatga ega bo'lган mis tangalar xam ko'plab zARB qilingan. Faqat Surxondaryo viloyatining kichik qishloqlarida kushonlarning yuzlab mis tangalari topilganligi fikrimizning dalilidir. O'rta Osiyoda bunday xol ilgari bo'lмаган. By kundalik mayda savdoning xalk orasida qanchalik rivojlanganligidan dalolat beradi.

Kushon tangalarini aksariyati oltindan zARB qilingan. Bundan tashqari kushonlar davrida ko'plab mis chaqalar xam chiqarilgan. Mas,: *Surxondaryo*

xududida ular faqat ko'xna shaxarlarning xarobalaridagina emas, balki kichikrok qishloq kasabalarida xam uchraydi.

Binobarin, xatto qishloqlar xam o'sha davrlarda tovar pul munosabatlariga tortilgan. BU davrda Amularyo viloyatlari iqtisodiy taraqqiyotining yuqori yuksak darajaga etdi. Bu borada mazkur viloyatlar O'rta Osiyo miqyosida etakchilik qilganligi extimoldan xoli emas.

Er. av. IV asrning ikkinchi yarmida So'g'd podsholigi Grek-Baqtriya imperiyasidan ajralib chiqdi, ammo Grek-Baqtriya tartibiga taqlid qilgan xolda o'z tangalarini zerb etishda davom etdi. Lekin tez orada mazkur tangalardagi grek yozuvi sug'd yozuvi bilan almashtirildi.

Eramizning boshlarida bir tomonida podsho tasviri, ikkinchi tomonida yoychining rasmi aks ettirilgan So'g'd kumush tangalari paydo bo'la boshladi. Ularning vazni ancha engil bo'lib, og'irligi 0,3 grammni tashkil etardi.

Er.av. III-II asrlarda O'zbekistonning shimoliy xududlari ko'chmanchi kangyuy birlashmasiga tobe edi. O'trok viloyatlar esa o'z xukmdorlariga ega bo'lib, yarim mustaqil edilar. Xorazmga kushon tangalari kirib kelsa xam, ular-podsho tasvirini va otliq askarni aks ettirgan o'z tangalarini zerb qilishda davom etardi.

Eramizning birinchi asrida CHochda (*Toshkent viloyati territoriyasida*) xam tangalar zerb qilingan. Bu tangalarda toj kiygan podsho, ikkinchi tomonida sug'd yozuvi bo'lgan o'zita xos tamg'a tasvirlangan edi.

Bu davr taraqqiyotida Farg'ona vodiysi iqtisodiy rivojlanish girdobiga tortiladi. Vodiyya Xitoy tangalari tez-tez uchraydi, ayrim viloyatlarida esa rim tangalari ko'zga tashlanadi (*O'rategada shunday tangalar xazinasi topilgan*). Bularning bari xalqaro savdoning keng miqyosda olib borilganligidan, unga O'zbekistonning ko'pgina viloyatlari tortilganligidan dalolat beradi. Bu esa Farg'ona viloyatining iqtisodiyoti jadal rivojlanganligidan dalolat beradi. O'zbekiston territoriyasida maxalliy tangalar bilan bir qatorda chet ellardan

keltirilgan tangalar xam uchraydiki, bu O'zbekiston viloyatlarining xalqaro savdo bilan keng shug'ullanganligini ko'rsatadi.

Jamiyat iqtisodiy va siyosiy rivojlanishining ilgarilanma xarakati er yuzi ayrim mintaqalarida taraqqiyotni yuqori darajaga erishuviga zamin yaratdi. Dastlabki tanga chaqalarning paydo bo'lishi mil. av. VII asrda Kichik Osiyoda paydo bo'ldi. Tangalarni zARB etish O'rta dengiz bo'yli mamlakatlarida tez tarqaldi. Pulni paydo bo'lishi bilan savdo-sotiQ rivojlanib uzoq va yaqin mamlakatlar O'rtasida karvonlar muttasil qatnay boshlagan. SHu tariqa pul taraqqiyot uchun xizmat qila boshlagan.

Yirik sultanatlار qaror topishi bilan xar bir mamlakatda ko'proq boylik orttirish ishtiyoqi paydo bo'ldi. Savdo-sotiQ ishlarini rivojlanishi karvonlar qatnovi, urush qilmay turib boyliklarni qo'lga kiritish mumkinligini ko'rsatdi. Natijada o'zga yurtdan kelgan savdogarlardan soliq olish odat tusiga kirdi.

YUNon shaxarlari tanga zARB qilish tarixida muayyan o'rIN tutadi. Mil.av. III asrdan boshlab bronza o'rniga oltin tangalar zARB qilina boshlagan va uzoq yillar muomalada bo'lgan.

Mil.av.VI asrda eron va O'rta Osiyoning katta qismi Axmoniylar imperiyasi tarkibiga kirgan. SHu davrda Aleksandr Makedonskiy Axmoniylar imperiyasini barbod qilgan. Uning vafotidan so'ng sharqiy erlar Salavkiylarga o'tgan. Axmoniylar va makedonskiy tangalari O'rta Osiyo xududlariga kirib kelgan, biroq bu tangalarning ayrim nusxalari edi.

Salavkaning o'g'li Antiox davridai kumush tangalardan tashqari mis chaqalarni qo'llanilishi kuzatiladi.

Mil.av. III asrda O'rta Osiyoda pul muomalasi boshlandi. SHu asrning oxirlaridan O'rta Osiyoning o'z tangalari paydo bo'ldi. Tangalarning old qismida chambarga olingan podshox byusti, orqa tomonida ot boshi va xukmdor nomi bitilgan tangalar asosan Samarqandda zARB qilingan.

Mil.av. III asr O'rtalarida Salavkiylar xukmronligining sharqiy xududlarida Grek-Baqtriya podsholigi yuzaga keladi. Grek-Baqtriya tangalari yuqori doira

ichida podshoxning tasviri uning ichki moxiyatini ochib beradigan tarzda zargarona san`at bilan bajarillgan. Bu davlat tangalari Surxondaryo viloyatida ko'p uchraydi. Buxoro voxasida yirik kumush tangalari 50 nusxadan iborat xazina topilgan.

Grek-Baqtriya xukmdorlari asosan kumushdan ba`zan oltindan va misdan ayrim xollarda mis nikel' qotishmasidan zarb qilingan. Bu tangalarning mashxurligi shunga olib keldiki, O'rta Osiyoning ko'pgina janubiy Amularyo bo'yи viloyatlaridagi xududlarda, Buxoro va Xorazm voxalarida shu tangalarga o'xshatib tangalar chiqarildi.

YAna bir mana shunday qadimgi davlatlardan xisoblangan Parfiya xaqida gapiradigan bo'lsak, mintaqamizning Atrek va Gurgon daryolari yuqori xavzasida joylashgan (*Janubiy Turkmaniston ,SHimoliy-sharqiy eronning bir qismi*) tarixiy makonlardan biri qadimda shunday nom bilan yuritilgan.

Mil.av. VI asrning ikkinchi yarmida Parfiya axmoniyalar qo'l ostiga tushadi va sultanatning 16 okrug tarkibiga kiritilgan.

Parfiya tangalarida tasvir etilgan shoxlarning siymolarini xar bir shox surati uchun individual bo'lgan **tiara** (*qadimgi SHarq podsholari xamda Rim papalarining bosh kiyimi*) shakli orqali farqlasa bo'ladi. Parfiya shoxlarini boshqalardan farqlaydigan belgi bu «ossuariy» tipi deb nom olgan qalin, uzun, to'lqinsimon turuvchi soqolidir.

Mil. av. IV asrning 30-yillari so'ngida yunon Aleksandrga tobe qilinadi. SHu asrning so'nggi o'n yilliklarida Salavkiylar ta`siriga tushib doladi. Bu xolat mil. av.III asr O'rtalariga qadar davom etadi. Taxminan shu davrda parfiyaliklar salavkiylar ta`siridan ozod bo'ladi. Bu xaqda yunon va arman manbalarini guvoxlik berishicha, asli kelib chiqishi saklarning day qabilasidan bo'lmish Tajan daryosi buylarida yashovchi Parna urug'i sardori Arshak salavkiylarning Parfiyadagi noibini ag'darib xokimiyatni o'z qo'liga oladi va arshakiylar sulolasiga asos soladi. Salavkiylarga zarba bergandan keyin. Rim bilan to'qnash keladi. mil. av.55-38 yillarda xarbiy yurishlar uyushtiradi. Mil. av. 53 yili Jazira

tomonidan shimolidagi Karr shaxri yaqinida ikki tomon O'rtasida to'qnashuv sodir bo'ladi. Xorazmliklarning xarbiy taktikasini qo'llagan arshakiylar rimliklarga zarba bergen. SHundan keyin Suriya, Kichik Osiyo xamda Falastinni xam bo'ysundirgan va poytaxtni Ktesifon shaxriga ko'chiradi. SHuning uchun Merg'iyona uning tarkibidan chiqadi. Arshakiylar davri ijtimoiy siyosiy xayotiga e'tibor bersak, oliy xukmdor arshakiylar xonadonidan bo'lishi shart xisoblangan. Davlat boshqaruvida ikkita kengash: zodagonlar va koxinlardan iborat bo'lgan. YAngi xukmdor shu kengash ishtirokida saylangan marxum vasiyati inobatga olingan. Vafot etgan xukmdorning o'g'li, ukasi taxtga taxtga chiqmasdan sulolani biron bir namoyandasi egallagan. Kengash xatto oliy xukmdorni chetlatishga xam qodir xisoblangan. SHu bilan birga mulklari, mavqeい bir xil bo'limganini ta'kidlash joiz. Seyiston, Tirkaniya yarim mustaqil mulk sifatida o'z pullarini zarb etganlar. Xar bir satrapiyada turli xo'jaliklar mavjud bo'lib, davlat xazinasiga soliq to'lab turgan. Ishlanadigan erlar bir necha darajaga bo'linib, ulardan olinadigan soliqlar xam turlicha bo'lgan, asosan maxsulot sifatida qisman pul bilan qabul qilingan.

Beshinchi asrning ikkinchi yarmidan boshlab Turkiston siyosiy xayotida eftaliylar xonadoni xukmron o'rinni tuta boshlaydi. Bu yillarda zaiflashish yo'liga kirgan kushonlar sultanatining g'arbiy sarxadlari sosoniylar taxdidi ostida qolgan edi. SHuning uchun bu ikki sulola O'rtasida raqobatlashish tabiiy edi. Beshinchi asrning 30-yillaridan to'qnashuvtalar sodir bo'ladi.

Sosoniylar davlatning sharqiy viloyatlarini (*Seyistondan margiyonagacha bo'lgan xudud*) boshqarganlar. SHu munosabat bilan ular qo'shni o'lka siyosiy, savdo doiralar bilan yaqindan muomalada bo'lgan. Sosoniylarni mazkur xududlarni boshqargan xukmdorlari "**kushon xukmdor**"lari unvoniga ega bo'lgan. Ammo eftaliylar qudrati oshib. Sosoniylarga qarshi kurashga kirishishini anglagan Peruz dastlab ularga qarshi urush ochadi, asirga tushib qoladi. Vizantiya xukmdorlarining yordami bilan ozod qilinadi, keyin yana ikki

marta xarbiy yurish uyuştiradi. Yana asir olinib 30 xachir kumush dirxam evaziga ozod qilinadi.

Eron sosoniylarini kumush tangalari Turkistonga ko'plab keltirilgan. Ularni old tomoniga shaxanshox tasviri, orqa tomoniga esa ikki soqchi O'rtasida o'tli mexrob tasvirlangan. Ana shunday dirxamlarga taxlitidan xukmdorlari buxorxudotlar nomida yuritilgan. Amularyo viloyatlari xamda Buxoro voxasida kumush tangalar zerb qilingan. SHu bois Buxoro tangalari-buxorxudot tangalari nomini olgan.

Turkistonga Vizantiya tangalari kirib kelib, CHag'oniyon, Sug'd, CHoch va Farg'onada tanga chiqarishga o'z ta'sirini o'tkazdi. By ta'sir juft tasvirlarning paydo bo'lishida o'z aksini topadi. Sug'd, CHoch va Xo'jand oralig'ida joylashgan Ustrushon tangalari xam diqqatga sazovordir. Ularning ayrimlarida Xindiston bilan aloqalarga shama qiluvchi fil tasviri keltirilgan.

Bundan tashqari maxalliy tanga nusxalari xam bo'lган. By borada "**Xorazm chavandozi**" tasviri milodning birinchi asridan sakkizinchasi asrigacha bo'lган tangalardan joy olgan. Xorazm xukmdorlari o'z tangalarini zerb etishni yo'lga qo'yganlar. Pul tizimini joriy qilinishi davlatchilikni rivojlanganligidan dalolat beradi.

Tangalar haqida tushuncha

Avers – tanganing old tomoni

Revers – tanganing orka tomoni

Emitent – tanga zerb kiludigan shaxs

(podsho, xukmdor, amir, xon)

Legenda (afsona) – tangadagi uchraydigan barcha yozuvlar, kiskartirilgan suzlar, aloxida xarflar atamasi.

Nominal – tanganing kadri

Proba – tanganing oltinga nisbatan kiymati

Obrez – aylana cheti.

Medaler – medal yoki tanga kuyish yoki zerb etish san'ati.

Monogramma – (grek tilida mono – bir, gramma –xarf, yozuv.) Tangada monogramma – tanga zarb kilgan usta xamda xukmdor ismi shariflarining jimjimador bosh xarflari.) (*ilovaga karang*)

1.2. Jahon tarixini o’rganishda numizmatikaning ahmiyati

XX asr mamlakatimiz xalqlari uchun bergen eng buyuk va oljanob ne’mat bu O’zbekiston milliy davlat mustaqilligining qo’lga kiritganligidir. Chunki milliy mustamlakachilik zulmi va muteligidan ozod bo’lish, tom ma’nodaga istiqlol – mustaqillikka erishish xalqimizning uzoq yillardan buyun kutgan ezgu armoni va orzusi edi. Bu ezgu maqsad yo’lida millatning ming-minglab farzandlari o’z jonlarini qurbon qildilar.

Mustaqillik xalqlarimizning ozodlik, hurriyat, erkinlik shabadasidan to’yib-to’yib nafas olishi, o’zining haqiqiy insoniy baxti va istiqbolini yaratish imkoniyatiga ega bo’lishidir.

Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimovning asarlarida, nutqlarida mustaqillikning tarixiy ahmiyati atroflicha ochib berilgan. “Biz uchun mustaqillik eng avvalo, o’z taqdirimizni qo’limizga olish, o’zligimizni anglash, milliy qadriyatlarni, urf-odatlarimizni tiklash, hammamiz uchun mo’’tabar shu zaminda, har bir xonadonda tinchlik-osoyishtalikni, barqarorlikni saqlashdir. Aziz vatanimizda adolat, insof, dinu diyonat, mehru oqibatni qaror toptirishdir.”¹

O’zbekistonning milliy davlat mustaqilligi, xalqimizning hur, ozod yashab, taqdirini o’zi hal qilishdek buyuk baxt bugungi avlod, ya’ni sizubizga nasib etdi.

Ammo, qo’lga kiritilgan miliy davlat mustaqilligimizni saqlab qolish, uni siyosiy, iqtisodiy jihatdan yanada mustahkamlash va kelajagi buyuk davlatni barpo qilish mislsiz darajada qiyin, murakkab bir vazifadir. Bu

¹ // Xalq so’zi, 1994 yil 2 sentyabr.

vazifaning qay darajada bajarilishi malakatimiz fuqarolarining ijtimoiy-siyosiy saviyasi, milliy istiqlol mafkurasining nechog'lik ular ongida shakllanib, hayotiy dunyoqarashiga aylanishi bilan mushtarakdir. Bu ulug'vor vazifani hal etishda xalq maorifi tarmoqlari, umumta'lim maktablari, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari, ilmiy-tadqiqot institutlari hal qiluvchi o'rin egallaydi. CHunki, bu o'quv maskanlaridagi ijtimoiy-siyosiy va tarbiyaviy muhit sharoitida mustaqil O'zbekiston yoshlarining shaxs va fuqaro sifatida dunyoqarashi shakllanadi. Bu borada xalq ta'limi tizimining barcha tarmoqlarida o'qitiladigan fanlar, xususan tarix (vatan tarixi, jahon tarixi) fanining yuqori nazariy-ilmiy va tarbiyaviy saviyada olib borilishi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Masalan O'zbekistonning kelajagi bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash, ular ongida milliy istiqlol tafakkurini va vatanparvarlik g'oyalarini shakllantirishda Tarix ning o'rni va imkoniyatlari cheksizdir. CHunki, tarix xalqning xotirasi, Vatanimizning o'tmishi, avlodlar sevib, ezozlab, o'rganib, o'rnak va saboq oladigan hayot mакtabidir.

“Tarix inson orqali vujudga keladi va inson orqali abadiyatga aylanadi. Inson ongi va tafakkuri, qalbi va tuyg'ulari orqali yuzaga kelgan g'odisa sifatida qadriyatga aylanadi.”¹ Ana shu jihatdan qaraganda inson aql-idroki, uning tafakkur darjasи, hayotiy falsafasi, jamiyatni taraqqiy ettirish yo'lidagi sa'yi harakatlari, butun bir xalq, butun bir jamiyat mentalitetini belgilaydi. Ana shu mentalitet – millat yoki xalqning umumiyl madaniy-ma'naviy darjasи, aql-idroki va taqakkur maydoni nechog'ligiga qarab taraqqiyotning yohud tanazulning mazmun mohiyati ochiladi. Tarix esa ana shu o'ta murakkab, o'ta ziddiyatli, ayni paytda nihoyatda qudratli ruhiyat orqali, faoliyat orqali xotiraga aylanadi.

Tarixiy o'tmisiz biror bir xalqning buguni ham , kelajagi ham bo'lmaydi. Tarix odamlarni o'ylantiradi, bo'lib o'tgan tarixiy voqeа va

¹ Jo'rayev N. Tarix falsafasi. - T.: Ma'naviyat, 1999. 15-bet.

hodisalarni farqlash, tahlil qilish va ulardan amaliy, hayotiy xulosalar chiqarish asosida dasturiy harakatlar yo'llanmasini belgilashga yordam beradi.

Ma'lumki, o'tmishni o'rganmay kelajakni yaratib bo'lmaydi. Zero, bugunning qadru – qimmati, mohiyati va salmog'i kechagi kun tarozisi orqaligina to'liq idrok etiladi. Darhaqiqat, tarixdan kelajakka xizmat qiladigan amaliy xulosalar chiqarulmagunicha hech bir jamiyat ilgarilab rivojlanmaydi.

Dunyo xalqlari tarixi insoniyat taraqqiyoti haqida to'la va batafsil tasavvur, bilim hamda tushunchalar berib, yoshlarning har tomonlama barkamol shaxs bo'lib, yetishishida muhim o'rinni tutadi. Zotan, komil inson tarbiyasi davlatimiz siyosatining ustivor sohasidir.

Dunyo xalqlarining tarixiy tajribalaridan foydalanish, ya'ni tarixda bo'lib o'tgan voqealardan, hodisalardan, turli madaniyat va ma'naviyat sohasida faoliyat ko'rsatgan allomalar, tarixiy shaxslar hayotidan, iqtisodiy taraqqiyotidan, yangi farovon jamiyat qurish yo'lida insonlarni fozil, komil kishilar qilib tarbiyalashda foydalanish va hozirgi davrga xizmat qildirish eng dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Haqqoniy tarix dillarga hayot qonini quyuvchi, tillarga so'z baxsh etuvchi, saltanatlarni qayta yaratuvchi, o'tib ketgan asrlar silsilasini butun hayajonlari, egalari bilan ko'z o'ngimizda namoyon etib, hayotimiz sarhadlarini kengaytiruvchi mo'jizadir. Uning ma'naviy qudrati ila biz barcha kechmish zamonlarning odamlariga hamdamu hamnafas bo'lamicular bilan goh suyib, goh kuyib dilimizni rag'batlantiruvchi, huslarimizga ozuqa beruvchi turli voqealar, ajabtovur fe'l – atvorlar dunyosiga oshno bo'lamiz.

Tarixni insoniyat taraqqiyotining dardu quvonchlari, g'alabalaru mag'lubiyatlari, yaratuvchilik qudratiyu barbod etuvchi qora kuchlari, jasorat va xiyonat, oq va qoraning shiddatli to'qnashuvlari haqida hikoyalar bitilgan kundalik daftar deyish mumkin.

1.3. Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyoda iqtisodiy savdo munosabatlarining kengayishida numizmatikaning o'rni

Ilk O'rta asrlarda jaxon taraqqiyoti yanada tarakkiy topdi. chunki jaxonning rivojlangan mintaqalarida, quldorlik tuzumi inqirozga yuz tutib. feodalizm davri boshlandi. Natijada jaxon mamlakatlari bilan keng ko'lamdagi savdo va madaniy aloqalar yanada faollashdi. Xitoy bilan aloqalarning kuchayishi natijasida O'rta Osiyoning ayrim viloyatlarida xitoy namunasidagi tangalar zarb etila boshlandi. Ko'p asrlar mobaynida Xitoyda mis (yoki bronzadan) ishlangan. O'rtasida kvadrat tarzidagi o'yqli tangalar yagona pul xizmatini o'tagan. Ular zerb etilmay balki quyilgan. SHunday xitoy tangalari taxlitidagi (xitoy ieroglypharisiz) O'rtasi o'yiq quyma tangalar Samarqand, So'g'dda. Buxoro voxasida, Farg'onada, Ettisuvda va Amularyo bo'yi viloyatlarida chiqarilgan. Bundan tashqari Turkistonga Vizantiya tangalari xam kirib kelib. CHag'oniyon. So'g'd. CHoch va Farg'onada tanga chiqarishga o'z ta'sirini o'tkazdi. By ta'sir xususan juft tasvirlarning paydo bo'lishida o'z aksini topadi.¹

So'g'd. CHoch va Xo'jand oralig'ida joylashgan Ustrushon tangalari Xam diqqatga sazovordir. Ularning ayrimlarida chamasi Xindiston bilan aloqalarga shama qiluvchi fil tasviri keltirilgan. Umuman olganda ilk O'rta asrlar tanga nusxalarining nixoyatda xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Garchi O'rta Osiyo VI asrda Sariq dengizdan Qora dengizga qadar cho'zilgan ulkan turk xokonligi tarkibiga kiradi.

Turkiston erlarida amalda xukmronlikni o'nlab O'rta va mayda mulklarning xokimlari amalga oshirib, ulardan deyarli xar biri o'z tangasini chiqarishga intilgan. SHunisi diqqatga sazovorki. Turkistonning deyarli barcha viloyatlari iqtisodiy rivojlanishning shunday darajasiga erishdiki.

¹ Rtveladze E. Drevniye monetы Sredney Azii. – Tashkent.

natijada o'z tangasini chiqarish zarurati tug'ildi. Natijada bu davrga kelib barcha Turkiston viloyatlari numizmatika saxnasiga chikdi.

CHochda tanga zarb etish to'rtinchi asrdan oldinroq ilk O'rta asrlarda nusxalarning nixoyatda xilma-xilligi bilan ajralib turuvchi tanga zarb etadigan bir kancha markazlar tarkib topdi. Farg'onada ilk bor uz tangasi, chamasi oltinchi asrda paydo bo'lgan. Sakkizinchi asrda esa, bir kancha erlarda chiqarilgan. Ustrushonda tanga zarb etish ettinchi asrda vujudga kelgan. Keshda o'z puli zarb qilina boshlanganligi aniqlangani yo'q.

Naxshabda tanga zarb etish turtinchi asrdan boshlanib. sakkizinchi asrda xam davom etgan.

Bu vaqtga kelib tangalar xamma erda chiqarilgan bo'lsada, Turkistonning barcha viloyatlari iqtisodiy jixatdan bir xil rivojlangan emas. Bu borada Samarqand. So'g'd etakchilik qilgan, zero bu erda mis tangalar juda ko'p chiqarilar edi.

Umuman olganda bu davrda O'rta Osiyo ko'plab kichik va mayda egaliklarga parchalanib ketgan edi. By parchalanish xar bir viloyatning o'z tangasini bo'lishiga olib keldi. Mas,: Nahshabda (Qashqadaryo voxasining qadimgi shaxri) 3-5 asrlarda bir tomonda podsho kallasi. ikkinchi tomonda podshoning sher bilan kurashini aks ettirgan mis tangalar zarb qilingan. Buxoro viloyatida O'rta Osiyoga ko'plab kirib kelgan Sosoniy kumush tangasi ta'siri rol' o'ynagan. Tanganing bir tomonida xukmdorning kallasi, ikkinchi tomonida koxinlar bilan mexrob olov tasvirlangan. IV-V asrlargacha Sug'dda yoychi tasvirlangan mayda kumush tangalar chiqarilgan. YAqinda qadimiy Samarqand (Afrosiyob) territoriyasida ana shunday tangalar xazinasi topilgan.

Ettinchi asrning ikkinchi choragidan e'tiboran Samarqand pod shoxlari to'rtburchak shaklidagi teshikka ega bo'lgan, So'g'd yozuvi bitilgan mis tangalarni zarb qilganlar. Mazkur tangalarda kichik xokimlar uz unvon va ismlarini shuningdek tanga zarb etilgan joyni ko'rsatib

o'tganlar.Mas.:*Panch (Panjikent) yoki Seyiston va xokazo.* SHunisi diqqatga sazovorki Samarqand xukmdorlarining zarb qildirgan mis tangalari xozirgi kunda yuzlab.ayrim xollarda katta xazinalar tarzida topilmokda. Bunday tangalar biriichi navbatda ichki mayda savdoga xizmat qilgan. Bu tangalar boshqa viloyatlar Naxshab CHoch, Xorazm, Toxariston va eronda xam topilgan. YUqorida nomlari keltirilgan viloyatlar siyosiy jixatdan bir-biri bilan ajralib ketgan bo'lsa xam ularning O'rtasidagi savdo aloqalari yaxii yo'lga qo'yilganligidan dalolat beradi.

Samarqand xokimlarining chiqargan tangasidan qo'shni Ustrushona (*Jizzax va O'ratepada*) viloyatida VI-VIII asrlarda zarb qilingan tangalar tubdan farq qilgan. Ularda to'rtburchak shaklidagi teshiklar bo'lmay, balki xukmdorning rasmi va So'g'd yozuvida xukmdorlarning nomi va unvoni xamda tamg'asi ifodalangan.¹

SHu davrlarda CHochda. ya`ni VI-VII asrlarda bir necha xilda ko'plab tangalar zarb qilingan. Ularda So'g'd yozuvlari, tamg'alari, podshoning boshi yoki rafiqalarining rasmi ifodalanar edi. Tanga pullar xilining ko'pligi CHochda pul savdosini juda xam rivojlanganligini ko'rsatadi.

Yaqinda Samarqand muzey kollektsiyasidan V-VI asrlarga oid Farg'onaning tangasini topishga muvaffak bo'lindi. Qadimiy yozuvi bo'lgan bu yodgorlik o'sha davr xalklarining tilini o'rganishimizda yakkayu yagona yodgorlik xisoblanadi. Keyinchalik VII-VIII asrlarda Farg'onada to'rtburchak shaklidagi teshikka ega bo'lgan So'g'd yozuvi tushirilgan tangalar chiqarilgan.

SHu davrlarda zarb qilingan tangalar , O'rta Osiyo xalklarini yuksak madaniyatga ega ekanligini birinchi navbatda tovar pul munosabatlarini gullab-yashnaganligidan dalolat beradi.

¹ Numizmatika (o'quv-uslubiy majmua). Toshkent, 2012 yil.

Ilk va o'rta asrlarda yevropa numizmatikasi

O'rta asrlarda Yevropa tangalar tarixini 5 davrga bo'lish mumkin¹:

1. Varvarlar zarblari – V-VIII asr o'rtalari.
2. Karolinglar dinori –VIII o'rtalari –X asr.
3. Feodallar dinori – X-XIII asr o'rtalari.
4. Groscha va Florina – XIIIasr o'rtalari – XVIasr boshi.
5. Taler davri –XVIasr boshi – XVIII-XIX asrlar.

Yevropaning ilk tangalari (ilovaga karang)

Yuqorida ta'kidlaganimizdek Yevropada miloddan avvalgi 45 – yillarda Rimda Tit Kariziy magistrligi davrida ma'buda Yunona ibodatxonasida old tomonida bejirim ayol boshining surati bezab turgan, orka tomonida “Moneta” (grek tilida “Bashoratchi”) deb yozilgan dinor pul zARB kilingan.

Rim dinor zARB etilishiga kadar tangalar bir necha asrli tarixiy yul bosib utishga ulgurgan edi. Juda kadim zamonlardan beri tangani afsonaviy kaxramonlar va ma'budlar yartadi, degan akida yashab kelar edi. Kadimgi grek manbalarida tanganing kelib chikishi haqida uchta faraz borligi kayd etiladi. 1- faraz. Tangalar ilk bor Kichik Osiyo davlati Lidiyada zARB kilina boshlagan. 2-faraz. Kumush tangani Agros podshoxi Fidon kashf etgan. 3-faraz. Tanganing yaratilishi Eolidadagi kima shaxrining afsonaviy shoxi Midasning xotini malika Germodik nomi bilan boglikligi aytildi.

1-bosqich. Rim imperiyasi yemirilgandan sung Sharkiy-Yevropa ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, ishlab chiqarish zaiflashadi, hunarmandchilik va natural xo'jalikka asoslangan mexnat taqsimoti vujudga keladi.

Doimiy maxaliy bozorlarning bulmaganligi, bu davrda tangalar asosan xalqaro pul vazifasini bajargan. Zero, ichki savdo ilk feodal jamoa xujaligining asosini tashkil etgan. Mamlakatda tovar ayriboshlash kuchli bulgan tangalar asosan boylik, xazina, mulk va tulov vositasi sifatida zARB kilingan.

¹ Vvedeniye v spetsialnqe istoricheskiye dissiplinq. M.MGU 1990g. – 32 str.

Varvarlar davri (V-VIII asrlar)

Pulning paydo bo'lishi qadimgi zamonlarda taraqqiy etgan madaniyatlar ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishlarning qonuniy oqibatidan kelib chiqqan tabiiy hodisadir. Tovar ayirboshlashning uzoq hamda murakkab jarayoni va chakana savdoning rivojlanishi tovar – pul hamda qimmatbaho buyum (yombi) ishlatish bosqichidan o'tib, oxir – oqibatda ma'dan tanga paydo bo'lishiga olib keldi. Birinchi tangalarning o'ng yoki tersida ularning o'lchovi to'g'ri, og'irligi to'la ekanligini tasdiqlovchi rasm – muhri bilan qimmatbaho buyumdan (yombi) farqlanadi.

Rasm – muhrlarda xilma – xil geometrik shakllar, hayvonlar, qushlar, baliqlar, sher, toshbaqa, dengiz mushugi, boyo'g'li va shu kabilar tasvirlanadi.

Faqat oradan ancha vaqt o'tgandan keyin tangalarda yozuvlar milloddan avvalgi VI asr o'rtalarida hamda Aleksandr Makedonskiy davridan boshlab, podshohlar va ma'budalarning tasviri paydo bo'ldi.¹

Varvarlar davrida tanga zarb qilish Rim imperiyasi an'analariga asoslangan. Shu vaqlarda oltin, kumush, mis(bronza) tangalar zarb qilinib, funt og'irligiga ega bo'lган(327,45 gr). Asosiy tanga – oltin solid (4,55gr q1G`72 funt) bo'lган. Bu tangani imperator Konstantin I (306-337 yillar) zarb qilib, bu Vizantiyada to XI asrgacha saqlangan. Solid tanganing old tomnida imperator rasmi, orqa tomnida esa g'alaba xudosi qanotli Viktoriya tasvirlangan.

1-oltin tanga Vizantiya imperatori Tiberii II (579-582) tomonidan zarb qilingan. Bundan ilgari imperator Anastasiy I (491-518) mis tanga folis zarb qilingan. Solid 40 dinorga teng bo'lган. Bu “katta solid”. 12 dinorga teng bo'lган. Bu “kichik solid”.

Karolinglar davri (VIII-X asrlar)

¹ Vvedeniye v spetsialnqe istoricheskiye dissiplinq. M.MGU 1990g. – 36 str.

Yevropa tanga taraqqiyotida Karolinglar (Frantsiyada) davriga to'g'ri keladi. Bu davrda tangalar to'g'risida Nizomlar, qarorlar qabul qilingan. Bu davrda Pipin Karotki (751-768) va Karl Buyuk (768-814) islohotlari asosiy o'rinni egallaydi. Karolinglar davrida vazni 1,25 gr teng bo'lган dinor zarb qilingan. Bu tangalar oldingilardan farq qilib, arablar ta'siri natijasida tangalarda podsholar rasmlari tushirilmagan. Endilikda ilohiy jozibador tasvirlar, harflar tasvirlangan. Bu tanga kumush blib, oltindan ham yuqori o'rinni egallagan. Pipindan so'ng o'g'li Karloman (768-771) tanga zarb qilingan. Bu vaqtarda tanga zarb qilish ustaxonalari : Anje, Bezanson, Liona, Parij, Sen- et'en, Strastburg, Mastrix va boshqa shaharlarda bo'lган. 800 yillarda tanga ortida ibodatxona va xoj tasvirlari paydo bo'lган¹.

Feodallar dinori davri (X-XIII asrlar)

Bu davrda Yevropaning ko'p davlatlari feodalizm kuchayadi. Xalqaro tovar pul munosabatlari kengayadi. Bu davrda Yevropaning ko'p shaharlarida tanga zarb qilish shakllanadi. Mahalliy karolinglar dinorining qadri pasayadi. Endilikda chet mamlakatlarining pullari kirib kela boshagan. Bu vaqtda Chexiya (Yiglava- kumush koni XIII asr o'rtalarigacha), Italiya, Germaniya(Keln X sar), Frantsiya, Angliya va boshqa qirolliklarda tanga pullar zarb qilinib, bu pullar nafaqat o'z hududlarida, balki, butun Yevropada foydalanilgan. Asosiy tanga ishlab chiqarish X-XI Asrda Angliya, Germaniya davlatlari yetakchi bo'lган. Keyinchalik Vengriya, Daniyada rivojlangan. Lekin, bu tangalar ham uzoq vaqt foydalanilmagan. Endilikda ularning o'rnini Florina va Groshta tangalari egallaydi. (Tangalar doira shaklida bo'lган.)

Groshta va Florina davri (XIII-XVI asrlar)

Bu davrda Groshta va Florina nomli tangalar butun Yevropanin qamrab olgan. Oltin Groshta ag'irligi – 1266gr. (turk groshi), oltin florina esa – 1252gr (florintiya floringi) bo'lган. Dinorlar o'z qadrini yo'qotadi. Bu

¹ Vvedeniye v spetsialnqe istoricheskiye dissiplinq. M.MGU 1990g. – 34 str.

qiymatlar XVI asrgacha (to Taler davrigacha) mayda chaqalarga aylanib braverda va bora – bora kichik qiymatli tangalar qatoriga tushib qoldi.

Taler davri (XVI-XIX asrlar)

Bu davrda bu tanga birinchi bo'lib Italiyada zarb qilingan. Taler 23.5 va 33,5 gr og'irligi o'zgarib turgan va turli qiymatlarda bo'lган. Bu tanga amerikadan keltirilgan kumush o'rnini egallagan va keng tarqalgan. Bu mis tanga qadrining balandligidan 4 asr foydalanilgan¹.

¹ Vvedeniye v spetsialnqe istoricheskiye dissiplinq. M.MGU 1990g. – 36str.

2. BOB. O’RTA ASR SHARQ JAMIYATINING IJTMOIY-IQTISODIY TARAQQIYOTIDA NUMIZMATIKANING O’RNI.

2.1. Ilk va o’rta asrlarda O’rta Osiyo numizmatikasi

Pulning paydo bo’lishi qadimgi zamonalarda taraqqiy etgan madaniyatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishlarining qonuniy oqibatidan kelib chiqqan tabiiy hodisadir. Tovar ayriboshlashning uzoq hamda murakkab jarayoni va chakana savdoning rivojlanishi tovar-pul hamda qimmatbaho buyum ishlatish bosqichidan o’tib, oxir-oqibatda ma’dan tanga paydo bo’lishiga olib keldi. Birinchi tangalarning o’ng yoki tersida ularning o’lchovi to’g’ri, og’irligi to’la ekanliginitasdiqlovchi rasm-muhri bilan qimatbaho buyumdan farqlanadi.

Rasm-muhrlar xilma-xil geometrik shakllar, hayvonlar, qushlar, baliqlar, sher, toshbaqa, dengiz mushugi, boyo’g’li va shu kabilar tasvirlanardi.

Lidiyada 1- tangalar elektrdan- ya’ni oltin va kumush tabiiy qotishmasi – “oq oltin” dan, keyinchalik sof kumushdan zarb etilgan.¹

Faqat mashhur podshoh Krez mil.avv. 561-546 davridan keyin tilla va kumushning birga ishlatilishiga asoslangan tanga tizimi tadbiq etilib, bu tizim Eronda kenga tarqalgan. Qadimgi tanga tizimlarda masalan, Millid, Fokey, Egin, yevbey tizimlarida har bir vazn standarti uchun maxsus zerb etilgan turli nominallar ishlatilarda. Makedonianing gullab yashanashi, Makedoniskiy davlati bunyo etilishi davrida tangallar nominalli yagona normaga keltira boshlangan. Bu vaqtda tanga zerb etishda asos qilib 17.44 gg tetradrham hamda 4.36 draxmli atteka tizimi ishlatila boshladи. Atteka tizimi bir necha asrlar mobaynida O’rta Osiyoning janubiy hududlarida asosiy tizim bo’lib kelgan. O’rta Osiyo ilk pul paydo bo’lgan joylar sirasiga

¹ Rtveldze E.O’rta Osiyoning qadimgi tangalari. T.: G’.G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987, 9-bet.

kirmaydi. Buning asosiy sababi ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishning sustligidir. Bu yerda tanga paydo bo’lgunga qadar asrlar davomida ayriboshlash, savdoning turli tuman turlari mavjud edi. Miloddan avvalgi VI – IV asrlarda O’rta Osiyo qadimgi ahamoniylar davlati tarkibida bo’lgan. Bu davlatda esa mil.avv. VI asrning ikkinchi yarmidan to 30- yillargacha oltin (darik) hamda kumush (sikl) tangalar zarb etilgan. Tadqiqotchilarining fikricha darik nomi mil.avv. 522-486 yillarda hukumronlik qilgan podsho Doriy Gistasp nomi bilan bog’liq. Chunki tangalar o’sha davrdan boshlab muomilaga chiqarilgan. O’rta osiyoning janubiy hududlari mil.avv. 312 - yili salavkiylar imperiyasining bir qismiga aylandi. Baqtriyada zarb etilgan birinchi tangalarning paydo bo’lishi salavkiylar davlatining sharqiy hududlaridagi satrapi keyinchalik uning podshohi bo’lmish salavkaning o’g’li Antiox nomi bilan bog’liq.

Avval Salavk I va Antiox 1 larning mushtarakligida kumush tangalari, keyinchalik esa yagona hukumdor sifatida Antiox 1-ning tangalari zarb etila boshlandi. Ular orasida g’oyat qimmatbaho tangalar : stater, tetradrahma va drahma manbalarida aytilishi Antiox-1 drammasining old tomonidan shoh, orqa tomonida ot tasviri tushirilgan.

Antiox 1 tangalariga taqlidan hilma – xal sug’d tangalari paydo bo’ldi. Mil. avv. 3 asr ya’ni ikki mustaqil Parfiya va Grek – Baqtriya podsholigi paydo bo’lgan davrdan tanga savdo munosabatlarida ishtirok etgan. 3 asrdan to 2 asrgacha Grek – Baqtriya podsholigi tangalari san’at darajasida ishlab chiqarilgan. Tangalar asosan kumush va misdan , ba’zan tilladan zarb qilingan. Ular orasida antik dunyo davrining eng yirik oltin tangalari mavjud bo’lgan. Bu tangalarning ikkitasi haqida ma'lumot bor. Biri buxoro amiri xazinasida saqlangan. Ikkinchisi parijda saqlanadi.

Grek - Baqtriya kumush tangalari asosan bir andozada bo’lib, old tomonida xukumdor podsho, orqasida u o’ziga pir qilib olgan ma’bdularning masalan, Zevs, Gerakl. Poseydon, Appolon, Diyoskurlarning

tasviri tushirilgan edi. Ularda podshoning martabasi , ismi va laqabini anglatuvchi gerk yozuvlari yarim doira va ustuncha shaklida joylashtirilgan.

Parfiya tangalarida tasvir etilgan shohlarning siymolarini har bir shoh surati uchun individual bo'lgan Tiara (qadimgi sharq podsholarining bosh kiyimi) shakli orqali farqlasa bo'ladi. Parfiya shohlari asosan qalin, uzun, to'lqinsimon turuvchi soqol tasviri tushirilgan. Tangada podshoning taxtdan o'tirgani tasvirlangan.

Uning chor atrofida grekcha yozuvlar. Mil.avv. 1- asrdan boshlab tangalarda Parfiya tilidagi yozuvlar paydo bo'lgan. Yozuvlarda podshoning nomi, tanganing qachon va kim zarb qilagani haqida ma'lumot bor.

Eramiz avv. dastlabki asrlardan boshlab to eramizning 1 asrlariga zarb etilgan sug'd tangalari bu jihatdan diqqatga sazovordir. Bu davrning behisob, turlituman sug'd tangalarini bir necha turkumga bo'lish mumkin.

Antiox, salavkiylar tangalariga taqlidan zarb etilgan, ters tomonidan otning boshi tasviri tushirilgan kumush hamda mis tangalar .

Salavkiylar yoki Aleksand Draxmasiga borib taqaluvchi. Gerakl va Zevs tasviri tushirilgan, ammo sug'd yozuvi bor kumush tangalarda chopib ketayotgan ot va tik turgan tangri tasviri tushirilgan gerkod kumush tangalari terandoz tasviri hamda sug'd yozuvlari tushirilgan kumush tangalargrek tilidagi yozuvlari xiralashgan, pala partish sug'd yozuvlari bor yevtidim tetradrahmalariga taqlidan zarb etilgan tanglalar.

Sug'd tangalarining aksariyat qismi to'g'ri shakldagi, yuzi uymali, vazni va diametri o'rtamiona kumush to'garakchalaridan iboratdir¹.

Eramizdan oldingi II asrda Xorazmda ham tanga zarb qilina boshladi. Dastlabki Xorazm tangalari yevkradir, tetradrahmalariga taqlidan zarb etilgan yirik kumush tangalar bo'lib, asl nusxalaridan farqli o'laroq, yozuvlari xiralashgan, ters tomonidan o'ziga xos belgi (tamg'a) borligi

¹ Rtveladze E.O'rta Osiyoning qadimgi tangalari. T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987, 29-bet.

bilan ajralib turadi. Keyinchalik o'ng tomonida yevkratik tasviri mahalliy hukumdar surati bilan o'zgartiriladi va xiralashgan grek yozuvlari bilan bir qatorda podshoning ismi va unvoni haqida ma'lumot beruvchi, Xorazm tilidagi yozuvlar, tanganing ters tomonidan esa suvoriyning rasmi paydo bo'ladi.

Ba'zi bir tadqiqotchilar Beruniy ma'lumotlariga asoslanib, tangada tasvirlangan siymo xorazmshohar sulolasining asoschisi suvoriy tangri Suyovush desa, boshqalar bu tasvirda podsho tangri berilgan deydilar.

Tetradrahmaning o'ng tomonida sochlari hafsalala bilan taralgan, peshonasiga tasma bog'langan, yuzlarida g'ayrat shijoat barh urib turgan erkak kishining beligacha tushgan surati berilgan. Tanganing ters tomoni kishi diqqatini o'ziga tortadi :

O'rtada ot mingan shoh. Uning orqasida gulchambar tutgan Nika ma'budasi parvoz qilayapti.

Kushon shohi Kadfiz 2 zamonida pul islohoti o'tkazilib, yangi tanga sistemasi asosiy stateri 8.03 ga teng keladigan turli tuman sifatdagi tillardan zarb etishga asoslangan bo'lib, ikki xil tanga joriy etilgandir: biri 16.07 gramm ikkinchisi esa 2.01 gramm. Shuning bilan bir qatorda diametri 23 – 25 mm, vazni 16-17 gramm keladigan mis tangalar ham muomilaga chiqarilgandir.

Tangalarning o'ng tomonida beriladigan suratning doimiy turi ham ishlab chiqildi. Bu suratda yuzi yon tomonidan aks ettirilgan shoh mehrob oldida tik turganicha qandaydir diniy ibodat a'do etmoqda. Bu tipdag'i kohin shoh tasviri boshqa barcha kushon podsholigining shohlari, shu jumladan. Kanishka, Vasudeva, Kanishka 3 tangalarida mavjud.

Ilk o'rta asr davrida antik davrga nisbatan tanganing o'ng va teslari anchagina o'zgardi. Tasvirlar bo'rtma emas siyqaroq, rasmlar esa oddiy chizila boshladi.

Yozuvlar va nasbni bildiruvchi tamg'asi bor, ammo hukumdar yoki ma'budaning tasvirisiz shuningdek. Hech bir yozuvsiz tangalar yuzaga keldi. Bunday xol ilgari sira uchramagandi.

O'rta osiyoning bir qator viloyatlari tangalarini ekonografiya nuqtai nazaridan qisqacha tasvirlab o'taylik.

Choch. Bu viloyatning turli joylarida zarb etilgan tangalar g'oyat xilma xildir ko'pincha tangalarning o'ngida tik boquvchi yoxud yuzini xiyol chetga burib turgan hukumdar yoki shoh va malikaning siymolarini ko'rish mumkin. Aksariyat hollarda bu tasvirlar aniq bir shaxsning portret belgilaridan xoli bo'ladi va umumiylashgan, ba'zan hatto sxematik obraz tarzda ifodalanadi. Tangalarda yirtqich hayvon yaydoq ot va tuch tasvirlari tez – tez uchrab turadi. Bizning taxminimizcha, bu jonivorlar hukumdar urug'inining homiy totimlari bo'lsa kerak. Tangalarning tersi bir xil tre – o'rtada tamg'a, uning gir atrofida hukumdorning ismi, unvoni hamda mult nomi sug'd yozuvida berilgan¹.

Sug'd. Ilk sug'd tangalarining o'ngida silliq sochli ma'budaning tasviri bo'lsada, 7 asrning yarmida sug'd hokimlari- ihshidlar hamda ularga tobe amlokdirlar to'rtburchak teshikli hech bir tasvirsiz siyqa tangalari zarb qila boshlashdi. Tanganing o'ngida kursiv bilan berilgan sug'd yozuvi hukumdorning ismi va unvonini bildiradi.

Tanganing tersida esa har bir hukumdorning o'z sulolasiga xos belgi berilgan. Bunday tangalar ulardagi ism va unvonlar o'zgartirilib, yettisoyda turgash nomli turk qabilasi, buxoro vohasida savdogarlar shahri bo'lmish Poykent, Shimoliy Tohariston va Shoshda zarb etilardi. Eng so'nggi sug'd tangalarida eramizning 7 asridan boshlab, sug'd yozuvlari bilan bir qatorda qisqacha arab yozuvlari ham paydo bo'la boshlagan.

¹ Rtveladze E.O'rta Osiyoning qadimgi tangalari. T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987, 21-bet.

Istravshan. Qadimda hozirgi Tojikiston SSSR Lelinabod oblasti hamda O'zbekiston SSSR Jizzax oblasti territoriyalari joylashgan bu kichik o'lka hokimlari eramizning 7 asr 2- yarmida va 8 asrning 1 yarmida o'zmischaqalarini zarb qilishardi. Bu tangalarning o'ngida sosoniyalar tangalariga taqlidan boshiga qanotli chambar kiygan hokimning tasviri berilgan. Hokim satagariy tangalarida buning o'rniغا bud parstlarning donishmandlik ramzi bo'lmish fil tasviri berilgan.

Buxoro 4-5 asrlarda zARB etilgan buxoromiz tangalarining o'ngida toj kiygan hokim boshining nuqtalar bilan o'ralgan tasviri, terisida esa sosoniyalarning angalariga xos otashparstlar mehrobi yoki tamg'a berilgan. Oromiy tilidagi hukumdorlarning ismi va unvonini ifodalaydi.

Er. 5- asr o'rtalarida bu yerda sosoniy sulolasiga mansub shoh varahrabiy tangalariga o'xshatib kumush dirhamlar zARB etish yo'lga quyildi. Ularning o'ngida boshida jimjimador tojli, sosoniyalar shahamshohi yon tomonidan olingan tasviri, tersida muqaddas olov qo'riqchilari mobedlarning tasviri tushirilgan. Tangalardagi yozuv sug'd xatinining buxoro shakli bo'lib, "Buxoro shohi" ma'nosini anglatadi . Bir tarafida Nortuya - bu "avesto" da keltirilgan urush ma'budi Verertratma bo'lsa kerak. –tasviri berilgan mis tangalar ham keng joriy etilgandir.

Tohariston. Hozirgi shimoliy afg'oniston, o'zbekiston va Tojikistonning janubiy rayonlarida joydashgan bu ilk o'rta asrlar o'rtasida tangalar, xususan, kumush tangalar zARB qilish sosoniyalarning kuchli tasiri ostida edi. Bu yerda sosoniyalarning turli tuman tangalari tarqalishi Peroz va Xusrav 1 Anushervonlarning mahalliy tangalari paydo bo'lishiga olib keldi. Bu xil tangalarda qisqa – qisqa Baqtriya, ba'zan sug'd yozuvlaridan iborat natchikamlar – tavqiy, xilma – xil bosh kiyimlar kiygan hukumdorlarning yon tomonidan olingan minatura suratlari hatto hayvonlar suratlari diqqatga sazovordir.

Bu davr taraqqiyotida Farg'ona vodiysi iqtisodiy rivojlanish girdobiga tortiladi. Vodiyda Xitoy tangalari tez - tez uchraydi, ayrim viloyatlarida esa rim tangalari ko'zga tashlanadi (O'rategada shunday tangalar xazinasi topilgan), bularning bari xalqaro savdoning keng miqyosda olib borilganligidan, unga O'zbekistonning ko'pgina viloyatlari tortilganligidan dalolat beradi. By esa Farg'ona viloyatining iqtisodiyoti jadal rivojlanganligidan dalolat beradi. O'zbekistan territoriyasida mahalliy tangalar bilan bir qatorda chet ellardan keltirilgan tangalar ham uchraydiki, bu O'zbekiston viloyatlarining xalqaro savdo bilan keng shug'ullanganligini ko'rsatadi.

Ettinchi asrdan boshlangan arablar istilosini Turkistonni xam o'z domiga tortdi. Bu ijtimoiy xayotning xamma soxalariga ta'sir ko'rsatish bilan bir qatorda tangasozlik soxasida xam muxim bosqich bo'ldi. Arablar xalifaligi barpo qilingan dastlabki yillarda Vizantiya va Somoniylar davrida zarb qilingan tangalar savdo muomalasida ishlatilgan. SHundan so'ng xalifalik o'sha davr tangalarini chiqarishni davom ettirgan. Lekin tangalardagi Vizantiya imperatori yoki Somoniylar xukmdorining tasviri arab yozuvi bilan zerb qilingan.

Ettinchi asrning so'ngida Abdumalik Umaviy pul isloxitini o'tkazib, musulmon tangasini zerb qilishga asos soldi. SHundan e'tiboran tangalar sof epigrafik, ya'ni ularda faqat yozuvlar joylashtiriladigan bo'ldi. Bu davrda zerb etilgan yangi tangalar xar ikki tomonida xam tasvirlarni yo'qligi bilan oldingi tangalardan ajralib turar edi. Asta-sekin yozuvlar bir tartibda yozila boshlandi. Tanganing old tomoniga "**Lo iloxa illollox**", orqa tomoniga esa "**Muxammad olloxning rasuli**" degan yozuvlar bitilgan. Aylanma yozuvlar ko'proq suralaridan iborat. SHunisi muximki. tanganing old tomonida tanganing nomi, zarbxona nomi xijriy xisob bo'yicha tanganing zerb etilgan yili keltirilgan.

Xalifalikda oltindan, kumushdan, misdan tangalar zarb qilingan ularning nomlanishi metalga bog'liq edi. Oltin tangalar – **dinor**, kumush tangalar – **dirxam**, mis tangalar - **ful's** deb atalgan.

Ilk musulmon tangalari ismsiz bo'lgan. Keyinroq xalifalarning, noiblarning va xokazolarning ismlari paydo bo'ladi. Musulmon tangalardagi yozuvlar ko'fiy usulida yozilganligidan VIII - IX asrlardagi tangalar ko'pincha kufiy tangalar deb yuritilgan. Dinor va dirxamlarni faqat dastlabki vaqtarda xalifalikkina zarb qilish xukukiga ega bo'lgan. Mis tangani esa vorislar, amirlar tanga chetiga uz nomlarini yozdirib zarb qilishlari mumkin edi. Oltin tanga tashki savdo uchun zarb qilingan edi. Xalifalik savdosida kumush tangalar dirxamlar pul muomalasini asosini tashkil etgan. Ular xalifalik va uning xalqaro savdosini etarli darajada ta`minlaganlar.

Movorounnaxrda arablar istilosidan keyingi dastlabki vaqtarda umumxalifa tangalari bilan bir qatorda maxalliy eski tangalar xam muomalada bo'lган va arablar uz noiblarining nomlari bilan arab yozuvida shunday tangalarni zarb qilganlar.

Asta-sekin bu erlarda xam umumxalifalik tangalari dirxam, ful'slar zarb qilina boshlagan. VIII-IX asrlarda Buxoro, Samarqand, SHoshda SHunday tangalar zarb qilingan. Bundan tashqari vaqt - vaqt bilan tangalar zarb qiladigan shaxarlar xam bo'lgan. Mas,: *Muaskar ash-shosh(SHosh kal`asi), usha davrdagi Farg'ona poytaxti Axsikent shunday shaxarlardan xisoblanadi.*

Movorounnaxr xalifalikdan ajralib chiqqandan keyin Xirot viloyatidan kelib chikkan Toxir ibn Xusayn (821-873) Xuroson noibi etib tayinlanadi va u Toxiriylar sulolasiga asos soladi. U Bag'dod xalifaligiga tobe bo'lib ichki siyosatda mustaqil edi. Toxiriylarga tobe bo'lgan Movorounnaxr noibi birinchisi somoniylardan edi. Toxiriylar taxtdan tushganlaridan keyin Somoniylar mustaqillikka erishganlar.

Toxiriylar tangashunoslik soxasida dastlab dirxam va mis tangalar zarb qilganlar. Abdulla ibn Toxir xukmronligidan boshlab oltin dinorlar zARB qilingan. 15 dan ortik zarbxonalar bo'lib, vaqt - vaqt bilan tangalar zARB qilingan. Movorounnaxrning Samarqand, Buxoro, SHosh, Madinai ash-SHosh shaxarlarida, keyinchalik Xorazm zarbxonalarida tangalar zARB qilingan.

Umumiy ko'rinishi xusnixat yozuvlarni joylashishi bo'yicha Toxiriylar davlatida zARB qilingan tangalar umumxalifalik tangalaridan farq kilardi.¹

Birinchi Somoniylar faqat kumush tanga zARB qilish xukukiga ega bo'lganlar. Ular zARB qilgan **mis** tangalar - fel'slar tashki ko'rinishi bo'yicha yumaloqqa yaqin xatlari xunuk bo'lган.

Somoniylar xukmronligi o'rnatilgandan keyin Ismoil ibn Axmad davrida kumush tangalar ko'plab ishlab chiqariladi. Keyinchalik oltin tangalar paydo bo'la boshlaydi. Oltin tangalarga nisbatan a'lo sifatli kumushdan ko'plab zARB qilingan tangalar mamlakat tashqarisiga xam chiqib ketgan.

Somoniylar tomonidan zARB qilingan tangalardagi yozuvlar xuddi xalifalik davrida zARB qilingan tangalardek edi. Mis yoki kumush tangalarning bir tomonida bir yoki ikki qator axyon-axyonda uch qator yozuvlar uchraydi. Dirxamlarda faqat Somoniylar noibining ismi yozilibgina qolmay, xalifalarni ismlari xam yozilgan.

Somoniylar davrida zARB qilingan mis tangalar tashqi ko'rinishi bilan xam diqqatga sazovordir. Mis tanga ko'proq tarqalgan., ko'p muomalada bo'lishiga qaramay u dirxam va dinorlar singari puxta ishlangan. Ulardagi yozuvlar xam chiroyli. Ayrim mis tangalar, ayniqsa buxoroda zARB qilingan mis tangalar shunchalik chiroyli va puxta ishlanganki kishini xayratga

¹ Rteladze E.O'rta Osiyoning qadimgi tangalari. T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987, 22-bet.

solgan. O'sha davrlarda 30dan ortiq zarbxonalar bo'lgan. Lekin ular vaqtı – vaqtı bilan qisqa muddat ishlab keyinchalik yopilgan.

Somoniy dinorlari nisbatan kichik ko'lamda asosan Turkistondan tashqarida zarb qilingan, ko'plab Xuroson, ayniqsa Morvarounnaxrda Buxoro, Samarqand va SHoshda zarb etilgan.

Mis tangalar deyarli movarounnaxrda, Buxoro va Samarqandda ikki xil qiymatda – adli va pashiz tarzida chiqarildi.

Somoniylar davridagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki. Tangashunoslik soxasida xam shu davrlardan boshlab qalbakilashtirish masalasi bu davrda xam tangalarni xar vaqt qo'l bola uskuna shtampelda zarb etishaverган. Zarbxona uskunasi ular qo'liga tushib qolgan. Tangalarni qalbakilashtirish asrlar davomida mo'may daromad keltirgan, shuning uchun ular o'limdan xam qo'rqlay faoliyatini davom ettirganlar. Bu esa tanga chaqalarning qadri yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Somoniylar xukmronligining oxirgi davrlarida, ayniqsa X-asrning ikkinchi yarmiga kelib mintaqaning Ettisuv qismida shakllangan makondan ko'ra xam kengroq miqyosda siyosiy faoliyat ko'rsatish imkonii va qudratiga ega bo'lgan yangi siyosiy kuch maydonga chikadi. Biz ularni Qoraxoniylar nomi ostida bilamiz. "**Qaroxon**" atamasi xususida "**xon**" ma'lum tushuncha, ya`ni xukmdor "**Qora**"ning asli "**Qapo**" bir necha ma'noda qo'llanilishi ta'kidlangan xolda, biz ko'rayotgan misolda "**Buyuk**", "**Ulug'**" tushunchasini beradi.

SHunday qilib X asrning ikkinchi yarmida qoraxoniylar sharqiy yunalishda Balxash ko'li - CHergen daryosigacha (*SHarqiy Turkiston*) bo'lgan erlarni buysundirishga muvaffaq bo'lib, g'arbiy yo'nalishda Isfijob, O'zgan, Murg'ob daryosi quyi oqimlarigacha bo'lgan xududni o'z ta'sir doirasiga kiritib oladi. 1005 yili Somoniylar siyosiy saxnadan butunlay tushib ketdi, shu vaqtdan boshlab Qoraxoniylar en va Buxoro, Samarqand umuman Amularyogacha bo'lgan xududlarni boshqara

boshladilar. Boshqacha aytganda XI asr boshlarida Turkiston bir qancha siyosiy kuchlar tomonidan idora etilgan. SHarqiy Turkiston, Toshkent, Isfijob, Farg'ona, SamarqAnd, Buxoro, CHag'oniyon, Xuttalon viloyatlari Qoraxoniylar, Amularyoning chap soxilidagi erlar to G'aznagacha Xuroson, Seyiston viloyatlari g'aznaviylar. Xorazm esa Xorazmshoxlar, Orol dengizidan sharq va shimoldagi erlar o'g'izlar ittifoqi tomonidan boshqarilar edi.

Qoraxoniylar davri iqtisodiy xayotiga e`tibor bersak, dexkonchilik qishloq xo'jalik ishlarini bir maromda olib borilishi, sun'iy sug'orish inshootlarini qilinishi, savdo-sotiq va xunarmandchilik soxasida taxsinga sazovor ishlar qilingan.

Yuqoridaq ishlarni inobatga olgan xolda tangashunoslik soxasida xam Qoraxoniylar taxsinga sazovor ishlarni amalga oshirishgan.

Qoraxoniylar tangasi somoniylar tangasidan yozuvining nafisligi va umuman bezaklarning xilma-xilligi xamda sifatliligi bilan ajralib turadi. Kamdan-kam xollarda fil, yo'lbars, arslon, qoplon, quyon, qushlar, xatto baliq tasvirlangan. Qoraxoniylar mavjudodni tasvirlashni islom dinida ma`kul ko'rilmasligidan yaxshi xabardor bo'lganliklari uchun mavjudod rasmlari ichki bozorda ishlatish uchun chiqariladigan chaqalardagina berilgan.

Qoraxoniylar mis, kumush tangalar, XII asrning O'rtalariga kelib oltin tangalar xam zarb qilganlar.

Ayni vaqtda Qoraxoniylar davridan 40 dan ortik zarbxonalar fanga ma`lum. mas,: *Axsikent. Bolasog'un, Barob, Barsxon (Issiqko'l janubida) va boshqalar*. SHu takidlash joizki bir zarbxona bir necha nomlarda tanga zarb qilgan bo'lishi mumkin. Mas,: *Ko'zo'rda va Bolasog'un nomi bitta shaxarga tegishli*. Lekin Somoniylar davriga nisbatan Movorounnaxrda zarbxonalarni ko'payganligi shubxasiz, zarbxonalar uncha katta bo'limgan ularni tashkil etish uchun ko'p mablag' sarf etish talab qilinmagan.

Qoraxoniylar davlatini salmog'i ular zARB etgan XI asrning kumush tangalaridagi yozuvlar ma`nosida xAM aks etgan. XI asr kumush tangalarida bu davrga kelib, musulmonlar dunyosining diniy boshlig'i Bag'dod xalifasining nomi butun Qoraxoniylar davlatining xokimi, SHuningdek uning vassali shaxar yoki viloyat xokimining va tanga zARB qilingan joy ko'rsatilgan.

Mis tangalardagi yozuvlar kumush tangalardagi yozuvlardan farq qiladi. Ularda xalifaning nomi ko'rsatilmay, faqat tanga zARB qilingan shaxar yoki viloyat xokimining nomi. tanga zARB qilingan joy ko'rsatilgan.

Qoraxoniylar davrida zARB qilingan tangalardagi yozuvlarning aksariyati arab alifbosida bo'lib, onda-sonda uyg'ur so'zlari xAM uchraydi. Ko'pchilik xollarda Nasr, YUsuf singari xokimlarning nomlari uyg'ur tilida yoziladi. Tangalarning tashqi ko'rinishida xAM ayrim o'zgarishlar sodir bo'ldi. Agar somoniylar davrida zARB qilingan tangalardagi yozuvlar aylanasisga bitilgan bo'lsa, qoraxoniylar turtburchak shaklida yozganlar.

Qoraxoniylar asosan kumush tangalardan tashkil topgan tangalar sistemasini xAM somoniylardan meros qilib oldilar. X asr oxiri XI asr boshlarida Qoraxoniylarning oddiy kumush pullari sof kumushdan tayyorlanib xalqaro savdoda ishlatilgan. XI asrning ikkinchi un yilliklariga kelib kumush tangalarni sifati o'zgaradi. Kumush mikdori kamayib uning o'rniga mis qo'rg'oshin ishlatila boshlandi.

XI asr O'rtalariga kelib Ettisuv va Farg'onada tarkibida umuman kumush bo'limgan dirxam tangalar zARB qilingan va ok tangaga "**dirxam**" - ya`ni kumush tanga deb yozilgan.

Fanda "**kumush inqirozi**" deb atalgan bu xodisa XI asrda butun musulmon sharqida kayd qilingan. Qoraxoniylar davlatida "**kumush inqirozi**"ni sodir bo'lishiga o'zaro kurashlar sabab bo'lgan. undagi ko'plab xarajatlar sifatsiz dirxamlarni chiqarishga sabab bo'lgan, tanga

zarb qilishdagi bunday firibgarlik, axolini kumush va mis tangalarga bo'lgan ishonchini yo'qotgan.

SHuning uchun, X1 asr oxiri va XII asrda Qoraxoniylar davlatining shimoliy viloyatlarida tanga umuman zarb qilinmadni. Movorounnaxrda tanga zarb qilish ozayib ketdi. Savdo bitimlarida boshqa sulolalardan keltirilgan dinorlar - oltin tangalardan foydalanganlar.

Movorounnaxrda zarb qilingan tangalarda faqat Qoraxoniylar nomi yozilibgina qolmay, saljuqiylar sulolasiga mansub bo'lgan sultonlarning nomlari xam bitilgan. Tangalar asosan Samarqand, Buxoro, O'zgan zarbxonalarida chiqarilgan. XII asrning 60-yillariga kelib, tanga zarb etish ishlari butunlay o'zgardi. O'zgan va Samarqandda kumush suvi yogurtirilgan dirxamlarni ko'plab zarb kila boshlashiga yo'l qo'yiladi. By bilan bir qatorda Samarqand va Buxoroda oltin dinorlar zarb etila boshlandi. Kumush suvi yogurtirilgan dirxamlar kundalik savdoga bo'lgan talabni kondiradigan bo'lsa, oltin tangalardan savdo bitimida xalqaro savdoda xam foydalanilgan.

Xaqiqiy kumush tangalar bo'limganligi oltin tangalar. yirik pul xisoblanganligi uchun ularni mayda-mayda bo'laklarga bo'lib savdo qilishgan.

XII asrning ikkinchi yarmi va XIII asrdagi Qoraxoniylar sulolasini tomonidan zarb qilingan tangalar, X asr oxiri va XI asrda zarb kidingga tangalardan tubdan farq qiladi.

Birinchidan bu tangalar vaqt o'tishi bilan yiriklashib borgan. Agar X-XI asr tangalarining diametri 2 - 2,5 sm. bo'lsa. XII asrning 60-70 yillarida kumush suvi yuritib zarb qilingan dirxamlarning diametri Zsm.. XI asr boshlarida esa 4 sm. bo'lgan. Tangalardagi yozuvlarning joylashtirilishi, o'rni va ularning ma'nosini xam o'zgardi.

O'zbekiston xududida XI-XII asrlarda muomalada bo'lgan tangalarni asosiy qismi Qoraxoniylar davrida zarb qilingan tangalarni tashkil qiladi.

Lekin O'zbekistonning ba'zi janubiy tumanlari, ya'ni Termiz g'aznaviyalar, keyinchalik Temuriylar davlati tarkibiga kirgan. bu erlarda g'aznaviyalar va Temuriylar tomonidan zarb qilingan tangalar muomalada bo'lган.

Xorazmda anushteginiylar sulolası vakili Muxammad ibn Tekesh davridan muntazam ravishda tangalar zarb qilingan. Sulton faqat Xorazmda tanga zarb qilmay, balki Samarqand, Buxoro, O'zgan va Marv shaxarlarida, shuningdek Movorounnaxrdan tashqarida xam mis kumush suvi yogurtirilgan kumush va oltin tangalar zarb qildirgan.

Jaxon tarixidan ma'lumki, XIII asr boshlarida Turkiston mo'g'ullar tomonidan istilo qilindi. keyinchalik bu imperiya aloxida davlatlarga, uluslarga parchalanib ketdi. Jumladan Turkiston bu davrda CHig'atoy ulusi tarkibiga kirdi. Xorazm Jo'jilarga. Janubiy Turkiston Xulagularga bo'yinsundi.

Mo'g'ullar O'rta Osiyoni zabit etgach. uzaro savdo muomalasida oldingi sulolalar davrida zarb qilingan tangalar ishlatiddi. Ammo tez orada CHingizzon xamda xalifa Nosirning ismidan boshqa xech qanday xokimning ismi yozilmagan tangalar Samarqand va Buxoroda zarb qilina boshlagan. Xar ikki shaxarda xam kumush va kumush suvi yuritilgan dirxamlar, Samarqandda vaqt - vaqt bilan dinorlar zarb qilingan, Agar dinorlar keng muomala uchun zarb qilingan bulsa. dirxamlar esa usha tanga chiqarilgan viloyat axolisi uchun mo'ljallangan edi. Bu xol usha tangalarga bitilgan yozuvlardan ayon bo'ladi.

XIII asr oxirlarida CHig'atoylar davlatida yuqori probali kumush tangalar muntazam chiqarila boshlandi, bu bilan kumush inqiroziga chek qo'yildi.

XIV asr boshlarida CHig'atoy tanga turkumi shakllanib, u mo'g'ullar istilosи arafasida tangalardan tubdan farq qilgan. Tanganing old tomoniga islomiy e'tiqod ramzining ikkala qismi yozilgan va xalifalar; Abu Bakr. Umar. Usmon va Alining nomlari yozilgan. Tanganing orqa

tomonida podshox nomi, zarbxonalar nomi va sanasi, odatda rakamlar bilan tushirilgan. XIII-XIV asrdagi tanga yozuvlarida avvalgidek arab tili xukmronlik qilgan, ba`zan uygur yozuvidagi mugul matnlari berilgan.

Samarqandning XIII asr dirxamlarida, forsiy va onda-sonda turkiy matnlar arab yozuvida berilgan.¹

XIII asr Buxoro Tangalarining noyob nusxalarida xatto Xitoy ierogiflar uchraydi, bir vaqt Buxoro noibi xitoy bo'lgan.

Boshqa bir xitoyning maslaxati bilan qo'shni Xulagular davlatida XIII asr oxirida pul isloxitot o'tkazilib. unga ko'ra oltin va kumush tangalar zarb etish va muomalada yuritish man qilingan. Uning o'rniga "CHao" - qog'oz pul chiqarilgan. Xitoyda qog'oz pul bir necha asrdan buen mavjud edi. Xulagular davlatida esa qog'oz pul muomalada bo'lмаган. SHuning uchun axoli "CHao"ni kat`iy qabul qilmadi. Savdo-sotiқ tuxtab qoldi. xo'jalik faoliyati izdan chiqdi, natijada xukumat tez orada tanga zarb ettirishga majbur bo'ldi. O'ylamay o'tkazilgan isloxit inqirozga yuz tutdi.

Lekin 1225 yili Samarqandda zerb qilingan dirxamlar diqqatga sazovordir. Mugullar istilosidan keyin oradan besh yil o'tgan bo'lsa xam dirxamlarning turi uziga xos xususiyatlarini yo'qotmadi. Birinchidan. xech qaerda diniy akidalar bayoni kursatilmagan. gorizontal yoauvlar. xoshiyalar yo'q, old tomonida "Samarqand" so'zi bitilgan. Qolgan xamma yozuvlar to'g'ri turtburchak ichiga joylashtirilgan. Tanga zerb qilingan vaqt uch marta kayta yozilgan. Birinchi marta tanganing old tomonida va ikki marta orqa tomonida tanga zerb qilingan sana ko'rsatilgan. Ammo yozuvlardan biri ajablanarlidir. Unda "Bu tanga Samarqand va uning viloyatlarida utadi" deb yozilgan.

Samarqandda zerb qilingan kumush suvi yugurtirilgan mis dirxamlarda tojik tilida yozilgan so'zlar kishini yana xayratga soladi. "Kimda - kim Samarqand va uning chekkalarida ushbu tangani olmasa, u

¹ Numizmatika. Tashkent, 2004. 74-str.

jinoyatchi xisoblanadi" deb yozilgan. Sababi SHundaki avvalgi xukmdorlar davrida bo'lganidek, mo'g'ullar istilosidan keyin xam dirxamlarni uz qiymatidan ortikroq yurgizishga majbur qilganlar. Axoli kumush suvi yogurtirilgan mis dirxamlarni olish dan bosh tortar edilar. SHuning uchun xam Samarqandda tezlikda xaqiqiy kumush tangalar zarb qilindi. Buxoroda xam axvol shunday tarzda edi.

Movorounnaxrning boshqa viloyatlarida mo'g'ullar xukmronligining biriichi un yilligida umuman tangalar zARB kilinmadı. Bunday axvol uzoqqa chuzilishi mumkin emas edi. Savdo-sotiq ishlari mugullar bosib olgan vaqtdagi darajaga etmasada, muomala vositalariga juda muxtoj edi.

XIII asr o'rtadarida oltin tanga dinor zARB qilinib og'ir axvoldan qutulishga urinib ko'rildi. Dinopljni Buxoro, Samarqand, Xo'jand, O'tror, Damashq zarbxonalarida chiqara boshlandi. Dinorlar turli kattaliklarda bo'lgani uchun savdo vaqida ularni kichik - kichik bo'laklarga bo'lishga to'g'ri kelardi.

Kumush suvi yogurtirilgan mis dirxamlarni zARB qilish xam yo'lda qo'yildi. Ularni Samarqand va Buxorodan tashqari Xujand va O'tror zarbxonalarida chiqara boshlandi.

1317 yili CHigatoy ulusi savdo talablariga javob beradigan darajada pul isloxit o'tkazildi. Kumush suvi yogurtirilgan mis dirxamlarni ishlatish man qilindi.

Asta-sekin isloxit o'tkazilib. XSH asr oxiriga kelib muvaffaqiyat qozondi. Bir xil sifat va og'irlilikka (2 grammga yaqin) ega bo'lgan dirxamlar, ular qaerda zARB qilinganligidan qat`iy navar butun mamlakat bo'yicha muomalada bular edi. YAngi-yangi zarbxonalar ishga tushirilib, ular soni 16 taga etdi: Buxoro, Andijon, Qoshg'ar, Marg'ilon, Taroz, Toshkent va xokazolar edi.

1321 yili mo'g'ul xoni Kebekxon o'tkazgan pul isloxit savdoni rivojlantirish uchun yanada qulay, imkoniyat yaratdi. SHu davrdan e'tiboran

yagona namuna bo'yicha og'irligi 1,4 grammga yaqin bo'lgan kumush dinorlar chiqarila boshlandi. Bir kumush tanga 6 ta dirxamga to'g'ri kelardi.

Mo'g'ullar davrida O'rta Osiyoda zARB qilingan tangalarda xokimning ismi ko'rsatilmagan bo'lsada. Kebek va uning izdoshi Tarmashirin davrida zARB qilingan tangalarda "Ulug'larning ulug'i, adolatparvar XOQOH (yoki sulton)" deb yoziladigan bo'ldi.

Mo'g'ullar istilosidan to Amir Temurning taxtga utirishiga qadap o'tgan yuz elliq yil davomida O'rta Osiyoda tanga zARB qilish ishlarida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu umumi yagona belgi mo'g'ullarning umumi tamg'asidir.

2.2. Amir Temur va temuriylar davri ijtimoiy-iqtisodiy tarixida numizmatika

XIV asrning 60-yillarida Movarounnahrda siyosiy, iqtisodiy vaziyat keskinlashib ketdi, dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq ishlari inqirozga yuz tutdi. Bundan savdogarlar, hunarmandlar norozi zdilar. Axolining bunday tabaqalari o'rtasda mavjud ahvoldan qutilish, mamlakatni birlashtirish va kuchli davlat tashkil etish harakati quchayadi.

Ana shunday sharoitda Temur, barlos qabilasining amirlaridan biri, 1370 yili Movarounnahr noibi qilib tayinlanadi.

Temur o'z zamonining bunday talabini yaxshi tushundi, o'z maqsadini amalga oshirishda ruhoniylar, savdogarlar, hunarmandlarga suyandi. U Movarounnahrning yagona hukmdori bo'lib olgach, o'z davlatini siyosiy va iqtisodiy jihatdan mustahkamlashga kirishadi. Feodal tarqoqlik tugatilib, markazlashgan davlat tuzilganligi ijobiy hollarga olib keldi. Ayni vaqtida jrshshtsht asosi bo'lgan dehqonchilikda ham muayyan siljishlar ro'y berdi. Xunarshndchilik va savdo rivojlanadi, fan va madaniyat ravnaq topdi. Savdo munosabatlarining davlat va jamiyat hayotida, tashqi siyosatda tutgan

muhim o'rnini yaxshi anglagan Amir Temur bu borada qator tadbirlarni amalga oshirgan. Bozorlar qurish, eskilarini kengaytirish, ta'mirlash ishlarini jadal amalga oshirgan. Vuning isbotini birgina Samarqand bozorining bino etilishi orqali ko'rish mumkin. Amir Temur buyrug'i bilan shaharning temir darvozasi qismidan boshlanib, janubiy g'arbiy yo'nalishda katta ko'cha quriladi. Uning ikki tomonida esa ikki qavatli, chorak tim shaklida qurilgan do'konlar, rastalar qad ko'taradi. Ko'cha usti boshdan oxir gumbaz shaklida ishlangan toq bilan yopiladi. YOrug'lik tushib turish uchun har yerdan darchalar qoldirilgan. Bundan tashqari ma'lum masofada favvoralar otilib, omborxonalar qad ko'targan. Bu davrdagi pul muomalasiga to'xtasak, Amir Temur zamonida 6 gr. og'irlikdagi kumush tangalar va uning to'rtadan biriga teng 1,5 gr. lik katta pullar zarb qilinganligi ma'lum. 1,5 grammlik kumush pullar amiriyligi deyilgan. Mazkur nom Sohibqironning Amir unvoni bilan bog'liq¹.

SHuningdek muomalada mis pullar, chaqalar ham bo'lган. Tangalar Samarqand, Buxoro, Astrobod, Darband, Damg'on, Tabriz, Sabzavor, SHeroz va boshqa qator shaharlarda zarb qilingan. Bundan tashqari Amir Temur harbiy o'rdasining maxsus zarbxonasi bo'lган.

Temuriylar davrida ham ikki xshj qiymatda qumush tanga zarb qilish davom etdi. Yirik mis tangalar "tanga", to'dalari "amiri"(Temur unvoni "amir"ning qisqa shakli) deyilgan.

Ulug'bek davridan ko'pgina mis tangalar bizgacha yetib kelgan. Uning mis tangalarndan biri diqqatga sazovor. Aksi, Samarqand, Buxoro, SHahrисabz va Termiz tangalarida sher orasidan esa quyosh chiqib kelayotgani tasvirlangan. Hijriy 832 yil (milodiy 1428-1429) larda Ulug'bek ikki bosqichda muqim pul islohoti o'tkazdi. Birinchi bosqichda bir xil mis tangalar bir qancha zarb shaharlarda Andijon, SHohruhiya, Samarqand, Buxoro va SHahrисabz, Qarshi, Termizda chiqarilgan.

¹ Azamat Ziyo O'zbek davlatchiligi tarixi. T. "SHarq", 2001y, 129-bet.

Ikkinci bosqichda isloh qilingan tangalar ishab chiqarish Buxoroda markazlashgirildi va nusxasi hamda sanasi o'zgartirilmagan holda Ulug'bek o'limiga qadar, undan keyin ham zarb etilgan. Ulug'bekning pul islohoti hazina va aholi manfaatlarini ma'lum tarzda uyg'unlashtirdi. Temur va Temuriylar davrida zarb qilingan tangalar qator xususiyatlar bilan boshqa davr tangalaridan farq qiladi. Zarb etilgan tangalarga maxsus tamg'a bosish ana shunday xususgatlardan biri edi. Bunday naqshlar CHig'atoy davri tangalarida XIII asrda solinib, XU asrga kelganda keng qo'llanila boshladи. Ular dumaloq, to'rtburchak, gulga o'xshash va hokazo shakllarda bo'lgan.

Xorazm o'ng qirg'og'i bilan CHig'atoy ulusi tarkibiga kirsa-da, chap qirg'og'i Urganch bilan bирgalikda Jo'ji ulusi tarkibiga kirgan bo'lib, Oltin Urda xonlari tomonidan boshqarilar edi. XIV asrning ikkinchi yarmida 1360-1380 yillarda taxt uchun 25 xon urush olib bordi, markaziy hokimiyatning zaiflashganligidan qo'ng'irotlar qabnlasining mahalliy "so'fiylar" sulolasи ustalik bilan foydalandi. Ular taxminan 1360 yillardan Xorazmni mustaqil idora qila boshladilar. Hatto Zarafshonning o'ng qirg'oq yerlarini qo'shib oldilar.

1372 yshsh Temur Xorazmga yurish qilib o'ziga tobe qiladi. CHunki YUsuf So'fiy bir safar Amir Temurni tan olsa, bir safar Oltin O'rda xoni To'xtamishni tan olar edi. SHuning uchun Amir Temur Xorazmga bir necha marta yurish qilgan, 1388 yil Urganchni egallaydi. Amir Temur vafotidan so'ng Xorazmda yana Oltin O'rda xonlari xukmronlik qildi.

1412 yili Amir Temurning o'g'li SHohruh Xorazmni qayta qo'lga kiritadi. Mug'ullar istibdodidan so'ng Xorazmda zarb qilingan tangalar bizgacha yetib kelmagan. Temur hukmronligi davrida kichik oltin tangalar ham zarb etilgan. Xorazmda CHig'atoylar dinoriga o'xshash yirik kumush tangalar bo'lмаган. Xorazmni dirhamlari Movorounnahr CHig'atoy dirhamlaridan farq qilgan. Birinchidan ularning qiymati turlicha bo'lib u asta-sekin kamayib borgan. XI11 asr oxirlariga kelib hamma kumush

tangalarning og'irligi 2,3 gramm bo'lsa, X1U asr boshlarida 1,9 gramm, XV asrning boshlarida esa 1,1 grammni tashkil qilgan. Bu davrda turli og'irlikdagi oltin tangalar ham muomalada bo'lgan.

XIII asrga doir Xorazmning birinchi dirhamlarida o'sha davr hokimiyatini boshqarayotgan hukmdor nomi aks etgan. Tanganing bir tomonida diniy oyatlar yoki qur'ondan olingan kalima, ikkinchi to-monida tanga chiqarilgan sana, joy zarb qilingan. Tangalardagi yozuvlarda xatolar ham bo'lgan, harflar tushib qolgan yoki qo'shilib ketgan.

Temurning kumush tangalari uning nomidan soxta mo'g'ul xonlari Suyurg'at mish va Sulton Mahmud nomlari bilan Movarounnahr, Xuroson., Eron, Ozarbayjon, Iroqning 40 dan ortiq shaharlarida zerb etilgan. Movarounnahr va Hurosonning bosh hukmdori sifatida SHohruh Mirzo Astrobod, Vuxoro, Damg'on, Isfaxon, Kirman, Qum, Nishopur, Marv, Samarqand, Sabzavor, Sultoniya, Tabriz, Xorazm, Hirot va boshqa shaharlarda o'z nomi bilan kumush tangalar zerb qilib, pul zarbi va savdosini tartibga soldi. Bu davrda ichki chakana savdoda keng ko'lamda muomalada bo'lgan mayda mis chaqa "fulus"lar ko'proq mahalliy hokimlar tomonidan zerb qilinar edi.

1428 yili **Ulug'bek** tomonidan o'tkazilgan **fulusiy pullar**¹ islohoti katta ahamiyat kasb etdi. Aholining ichki savdo munosa-batlariga ko'proq jalb etish maqsadida Ulug'bek yengil vaznda zerb etilgan va muomalada yurgan barcha chaqa pullarni bekor qildi. Ichki savdoni mayda mis pullarga bo'lgan talabini qondirish uchun bir vaqtning o'zida Buxoro, Samarqand, Qarshi, Termiz, Toshkent, SHohruhiya va Andjon shaharlarida zerbxonalar tashkil qilinib bir xil vazndagi fuluslar zerb qilinib muomalaga chnqarilgan. Mis pullarni zerbini markazlashtirish maqsadida boshqa shaharlardagi zerbxonalarga barham berilib, Buxoro zerbxonasi saqlab qoltingan. Xalq

^{1 1} Azamat Ziyo O'zbek davlatchiligi tarixi. T. "SHarq", 2001y, 130-bet.

orasida "Fulusi adliya" ya'ni, "adolatli chaqa" nomi bilan shuhrat topgan bu yangi mis fuluslar Movorounnahrning barcha shahar va qishloqlarida keng muomalaga kirib davlatning ichki savdosini naqd pul bilan ta'minlagan.

Ulug'bekning bunday islohoti mamlakatda hunarmandchilik mahsulotlarining ichki chakana savdosi uchun keng yo'l ohib bergen edi.

1428-29 yillardagi islohot pul momalasini yaxshilash, mis tangalar qadrini oshirish maqsadida amalga oshirilgan edi. Natijada u bir qancha samaralar berdi. Unga ko'ra 1420 yili zarb etilgan mis tangalar zarbxonalarga topshirib, ularning o'rniga og'irligi 1,5-2 barobar ko'p bo'lgan tangalar zarb etilgan. Qulaylik uchun zarbxonalar Buxorodan tashqari Andijon, Qarshi, Samarqand, Termiz, SHohruhiyada ham tashkil qilingan. Natijada pulning qadri ko'tarilgan. (*ilovalarga karang*)

3. BOB. XONLIKlar DAVRIDA NUMIZMATIKA

3.1. O'rta Osiyo xonliklarida zARB qILINGAN tangalar

XVIII asrda O'rta Osiyoda o'zbek qabilalaridan chikkan kishilar xukmronlik qilgan uchta mustaqil xonlik tarkib topdi: Qo'qon xonligi, Buxoro xonligi va Xiva xonligi. Uchchala davlatda (ashrafiy yoki tilla), kumush (tanga). misdan pul tayyorlandi. Qo'qon xonligida 1876 yili pul chiqarish tuxtilgan. Xorazshoxlar va Xiva xonligi davrida uzining xaqiqiy qiymatiga ega bo'lган oltin. kumush va mis muomalada ishlatilgan.

Xiva xonligida uch xil pullar muomalada bo'lган:

1. "**Tilla**" - oltin pul bo'lib. ikki xil shaklda va og'irlik miqdorida bo'lar edi. O'sha davr pul miqdorida 1 so'm 80 tiyinga teng, ikkinchisi 3 so'm 60 tiyin deb belgilangan edi.
2. "**Tanga**" - kumushdan ipshanib, bir tanga usha davr pul birligida 30 pul birligi yoki 20 tiyin deb belgilangan.
3. "**Pul**" - misdan ishlanadi. U pulga va tiyinga bo'linar edi. Kumushdan ishlangan tanga "**oq tanga**" deb, misdan ishlangan pul "**qora tanga**" deb yuritilar edi."**qora tanga**" o'zining qiymati jixatidan ok tanganiig 60 %ga teng edi.

SHuningdek xonlikda "**shoyi**", "**Abbos shoyi**". "**yarim shoyi**" deb nomlangan pul birliklari xam ishlatilgan. Ularning qiymati 10 tiyindan 40 tiyingacha o'zgarib turgan. Bu pullarda odam rasmi tasvirlanmasdan arab imlosida qaysi xonlik tomonidan nechanchi yillarda zARB qILINGANI yozilar edi.

Xiva oltinlari pullari maxalliy va chet eldan keltirilgan oltinlarga bo'linar edi. Xiva oltinlari o'zining yaltiroqligi, mustaxkamligi jixatidan ajralib turgan. Muomalada ko'p ishlatilgan kumush pullarni metallari Quyi Novgoroddan keltirilgan.

Xozirgi kunda Xiva xonligida zarb qilingan oltin, kumush, mis pullar va ularning qoliplari dunyoni ko'pgina mamlakatlari muzeylarida saqlanmokda. Mas.: *Moskva, Sankt-Peterburg, ayniqsa Xiva xonligi Rossiya tomonidan eabt etilgach uning qimmatbaxo buyumlarini birinchi navbatda oltin, kumush pullarini talash.* Rossiya jug'rofiya jamiyati vakili sharqshunos **olim P.I.Perx va A.P. Kun** raxbarligida ilmiy jixatdan tashkil qilindi. **Vasilevskiy** yordamida Peterburgdagi ermitajda tashkil qilingan numizmatika va boshqa fondlar O'rta Osiyodan. jumladan Xiva, Qo'qon va Buxoro amirligidan kelgan oltin, kumush, mis, atlas va boshqa pullar xisobiga boyili. 1883 yili ermitajga junatilgan buyumlar ichida 1168 ta qadimiy oltin-kumush tangalar edi. Bundan tashqari o'ljalar ichida tanga zarb qiladigan qoliplar, oltin va kumushdan ishlangan. 25 ta xon muxri, 200 dan ortik qadimiy tangalar mavjud edi. Bularning xammasi Xiva xonligi davrida zarb qilingan pullarning namunalaridir. Rossiya Xivani bosib olishi bilanok pul sistemasini Rossiya pul sistemasiga o'tkazishni taklif etgan. lekin amalga oshmagan.

Xonlikda ko'pincha kumushdan bo'lgan tanga pullar qulayligi uchun ko'p ishlatilgan. XIX asrning oxirlarigacha xar yili bir million so'mlik kumush tanga pullar xivalik maxalliy ustalar tomonidan zarb qilingan.

Rossiya bosib olinganidan keyin Ekaterina II podsholigi davridan buyon pul sifatida muomalaga kiritilgan qog'oz, kumush pullar xonlik xududida qo'llanilmagan. qo'llanilganda xam uz kursidan past narxda qo'llar edi. Pul muomalasida qiyinchilik vujudga kelishi natijasida sarroflar faoliyati aktivlashadi. Xatto rus savdogarlari tangalar va tillalarni yig'ishtirib olib qog'oz pullar tarkatishni taklif qiladilar. 1893 yil Rossiya moliya vazirligining tashabbusi bilan rus savdogarlarining iltimosi muxokama qilindi va Xiva xoni tanga pullarini faqat rus podshosining ruxsati bilan zarb qilish majburiyati yuklatildi.

Natijada XX asrning birinchi o'n yilligida rus qog'oz pullari ishlatilayotgan tanga pullarga nisbatan ikki barobar ko'payib ketdi. Xiva xoni Muxammad Raximxon II o'z umrining oxirlarida Xiva xonligida muomala uchun ishlatilayotgan pul miqdorining etishmayotganligi, shuningdek musulmon sharq olamida podsholar nomidan pul chiqarib turilmasa unga xalq itoat etmasligini tushuntirib iltimos qilib zo'rg'a tanga chiqarish imkoniyatiga ega bo'ldi. Uning vafotidan keyin Xivada pul bosib chiqarish deyarli to'xtatildi. Rus podshosi pullari muomalada ishlatiladigan bo'ldi.

1914 yildan boshlab Rossiya rus savdogarlari Xivada zarb qilingan tangalarni olmay qo'yadi. mavjud bo'lgan tilla va kumush pullar xalq qo'lida muomalada ishlatilib kelindi.

Asfandiyorxon xokimiyatga kelgach. rus podshosi va amaldorlari Xiva xonligida bir kancha isloxoqlar o'tkazish, Xivada muomalada bo'lgan yuritilayotgan barcha tanga va pullarni yig'ib olib butunlay pul sistemasini o'tkazishni xam taklif qildilar. lekin amalga oshirilmadi. 1918-20 yillar xonlikda ikki xonlik davri bo'ldi. Bu davrdagi *Sayd Abdudloxon qo'g'irchok xon* edi. Aslida xokimiyatni **Junaidxon** boshqarar edi. U uz xokimligini xalqqa ma'lum qilish uchun pul xam bostirib chiqardi. Uning **puli atlasga** ishlangan bo'lib "**turma QOG'OZ**" nomi bilan yuritilgan. Keyinchalik Junaidxon nomi bilan qog'oz pullar xam bosib chiqargan.

1920 yili 2 fevralda xokimiyat sovetlar tomonidan egallanganidan keyin 1920 yil 11 aprel' qaroriga asosan Xiva pul birligi kursi belgilandi. Xivaning QOG'OZ pul birligi kurs rus podsholari davridan ishlatib kelinayotgan 1 so'm "**krenka**" puli 4 so'mlik Xorazmning uchun sovet puliga va 1 so'm "**Turkiston boni**" puli, Xorazmning 5 so'mlik umumsovet puliga teng deb belgilanadi. 1920 yilning apreliдан boshlab Xivada yangi pul birligi bosib chiqarish boshlandi. Uning old tomonida

qishloq xo'jalik ishchi va dexkonlarning ittifokini bildiruvchi o'roq. jo'xori poyasi belgisi tasviri gerb tarzida tasvirlangan edi.

1921 yil 1 yanvardan RSFSRning 1919 yilda bosib chiqargan pul birligi ishlatila boshlandi. Bu UZ qiyamatiga ko'ra SHu davrda yurib turgan Rossiya "**Krenka**" puliga teng bo'lib va "**Turkbon**" nominasiga nisbatan 10 barobar qimmat edi.

Xorazmda 1920 yil may oyidan 1921 yil may oyigacha 489 million, 549 so'm Xorazm puli bosib chiqarilgan, Rossiyadan 225 million so'm qog'oz pul olingan. Junaidxon davrida bosib chiqarilgan 3 million so'm pul xam muomalada bo'lib. jami Xorazmda 717 million so'mdai ortiqroq pul mavjud edi. SHunday xolatda pul muomalasini tartibga sola olindi. Xorazm pulini qiymati tusha boshladи. 100 mlrd so'mlik Xorazm puli bosib chiqarildi. Bir milliard 100 million so'm RSFSR puli xam ishlatila boshlandi, lekin qadrsizlanishini oldini ola olmadi.

1923 yil 31 mayda va 9 iyulda Xorazm Xalk, Respublikasi MK ijroiya komitetida respublika pul birligi kursi kurib chiqildi. Xoraem pul birligi bir so'mlik Rossiya pul birligi bilan almashtirishga qaror qilindi va 1923 yili 10 iyuddan 10 avgustgacha-muddatga deb belgilandi. 1924 yil 14 fevraldan muomala uchun zarur bo'lgan pullar bosib bo'lingach. SSSR pul birliklarini bosib chiqarish tuxtatildi. Ularni o'rnini qoplash uchun 1924 yilda kaznachey biletlar. kumush va mis pullar bosib chiqarildi. Iyun' oyila SSSRni barcha xududlarida pul birliklarini almashtirish yakunlandi. Qadrsizlangan xamma pullar yig'ib olindi.

1922-24 yillar davomida amalga oshirilgan pul isloxoti Xorazmda Sovet xokimiyyati yillarida amalga oshirilgan birinchi pul isloxoti edi. Oltin. kumush va mis pullar bundan keyin xam axoli qo'lida ishyaatilib kelindi.

Ikkinci pul isloxoti 1947 yili. uchinchisi 1961 yilda amalga oshirildi. By isloxot xam muomaladagi 10 so'mlik pullar 1 so'm qiyamatiga keltirildi. YAngi pul birliklariga o'tildi.

1991 yil yanvar' oyila SSSR davlat bankining 1961 yil nusxasidagi 50 va 100 so'mlik pul belgilari to'lov uchun qabul qilish to'xtatildi. o'rniga yangi 50 va 100 so'mlik pullar bosib chiqarildi.

3.2. Zamonaviy Numizmatika va uning vazifalari

Mustakillikka erishgan mamlakatlarning tangalari va pullari namunada va ko'rgazmali qurollarda ko'rsatiladi hamda ular haqida to'la ma'lumot beriladi. Shuningdek, xorijiy davlatlar pul birliklari talabalardan savol-javob tarzida so'raladi.

Zamonaviy pul birliklari

Mustakillikka erishgan mamlakatlarning pullari haqida ma'lumot.

Avstraliya – dollar	Eron – rial
Albaniya – lek	Irlandiya – funt
Angliya – funt sterling	Islandiya – krona
Argnetina – peso	Ispaniya – peseta
Armaniston – dram	Italiya – lira
Afg'oniston – afg'oni	Qozog'iston – tanga
Belarusiya – rubl	Qirg'iziston – som
Belgiya – frank	Tojikiston – somoniy
Bolgariya – lev	Turkmaniston – manat
Braziliya – real	O'zbekiston – so'm
Bangladesh – taka	Kanada – dollar
Vengriya – forint	Xitoy – yuan
Vietnam – dong	Koreya – vona
Germaniya – marka	Quvayt – dinor
Gretsiya – draxma	Latviya – lat

Gruziya – lari	Litva – lit
Daniya – krona	Livan – funt
Misr – funt	Liviya – dinor
Zambiya – kvacha	Malayziya – ringgit
Isroil – shekel	Marokko – dirxam
Hindiston – rupiya	Meksika – peso
Iordaniya – iordan dallari	Moldaviya – ley
Iraq – iraq dinori	Mo'g'iliston – tugrik
Indoneziya – rupiya	Nepal – rupiya
Rossiya - rubl	Nigeriya - nayra

Hech o'ylab ko'rganmisiz, nega odatda pul birliklarida mashhur kishilarning tasviri aks ettirilgan bo'ladi. Gap shundaki, kishi yuzining tasvirida oz bo'lsa-da o'zgarish yuz bersa, bu darro ko'zga tashlanadi. SHuning uchun portret tasvirlangan pullarni qalbakilashtirish boshqa tasvirga ega pullarga nisbatan ancha qiyin.

Er yuzida dastlabki qog'oz pullar Xitoyning Sun sulolasiga davrida (960-1279) CHendu shaxri (g'arbiy Xitoy)da chiqarila boshlagan. Dastlab, ularning hajmi juda katta bo'lgan. Xitoy muzeylaridan birida 22,8x33 santimetrlidagi pul birliklari saqlanmoqda.

Hozirgi AQSH hududida dastlabki qog'oz pullar XVII asr oxirlariga kelib tarkala boshlagan. Ma'lumki "dollar" atamasi nemischa "taler" so'zidan kelib chiqqan. Janubiy Germaniyaliklar esa uni "daler" deya talaffuz qilishgan.¹

Tarixchilarning yozishicha, kumush dollar 1786 yilda muomalaga kiritilgan. Dastlabki "ko'k" dollar esa 1861-1865 yillarda bo'lib o'tgan fuqarolar urushi natijasida davlat xazinasida tilla zahirasi kamayib ketishi oqibatida chiqarila boshlangan.

¹ // "Darakchi" gazetasi, 2007 yil, 25-son, 18-bet.

Bugungik kunda yevropaning aksariyat davlatlari oldi-sotdi ishlarida yangi muomalaga kiritilgan yeVRO pul birligidan foydalanadi.

Ammo, Buyuk Britaniya hukumati o'zining milliy funt sterlingiga sodiq qoldi. Funt sterling lotincha “pondus” og'irlik, vazn hamda inglizcha “sterling” – kumush tanga so'zlaridan kelib chiqib, XII asrdan buyon muomalada.

XULOSA

Insoniyat tarixiy taraqqiyoti ulkan, poyonsiz yo'llarni bosib o'tdi, taraqqiyotni evolyutsion yo'li, insoniyatni tsivilizatsiya sari etakladi. Antik taraqqiyotni boshlanishi san`at va madaniyatning xamma soxalariga ta'sir ko'rsatib, o'zining rivojlanish yo'lida yuqoriga etgan bo'lsa, bu davrda tarix fanining aloxida bo'limi xisoblangan numizmatika soxasida xam diqqatga loyiq ishlar qilingan. Metalldan ishlangan pul tanga chaqalarning paydo bo'lishi insoniyat tarixidagi muxim voqealardan biridir. Ma'lumki jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning g'oyat yuksak darajasiga erishgandagina tanga chaqalar kashf etilishi mumkin. Odamlar endi pul tariqasida chorva mollarini ishlatmay qo'ysalarda, buyumlar narxini ilgarigi odatga kirib qolgan chorva mol narxiga chaqqanlar. Metall pullar qirqib tortila boshlaganidan keyin, ularni og'irligini ko'rsatib beruvchi belgi sola boshlaganlar. Belgi solingan pulni paydo bo'lishi xaqida shunday afsonalar saqlangan. Rimliklarni ko'pdan-ko'p xudolari orasida, ixtirolarni boshqaradigan xudolar xam bor ekan. Uning ikkita yuzi bo'lib, oti **Yanus** ekan. Dastlab tanga pulni o'sha YAnus ixtiro qilgan emish. SHuning uchun eski rim va ital'yan pullarining bir tomonida ikki yuzli YAnus surati, ikkinchi tomonida YAnus tushib kelgan kema surati zarb qilingan.

Tanga pullarning dastlab qaerda paydo bo'lganligini aniq aytish qiyin. Ammo tanga pulning nomi "**Moneta**" ellinlarda tug'ilgan.

Qadimgi Rimliklar xudolarni xammasi er va osmon podshosi YUpiter va uning xotini YUnion Monetaga bo'ysunadi deb bilganlar.

"**Moneta**"-murabbiya degani bo'ladi. Rimliklar ma'buda Monetani benixoya xurmat qilganlar va unga atab Rimning eng baland joyiga ibodatxona solganlar. Ular urushlarda g'olib bo'lganlaridan keyin o'z ma'budalariga atab katta qurbanliklar qilishgan, xatto pullarini YUnion

Moneta ibodatxonasida zarb qilishga qaror qilganlar. Ana shundan buyon tanga pullar moneta deb ataladigan bo'ldi.

Dastlab qilingan dunyoda tanga pullar faqat sof oltin va kumushdan zarb qilingan. Ammo bu metallar sof xolida juda mo'rt bo'lganligidan, undan zarb qilingan pullar tez eyilib siyqalanib ketgan. SHuidan keyin pullarni qotishmadan zarb qiladigan bo'lganlar, Oltin yoki kumushga boshqa metallar. mas,: *mis yoki qalay qorishtirganlar.*

Har bir mamlakatning xukmdori boshqalarnikidan farq qiladigan tanga pullar zarb qilib chiqarishga uringanlar.

Numizmatika fanining asosiy tushunchalaridan biri bo'lган tanga pul xillari ana shu tariqa paydo bo'lган. Tanga pullarni odatda betini o'rab turgan doirasi bo'ladi, bu doirada yozuv yoki surat bo'ladi. Numizmatlar yozuvni tanga pulning **Legendası** (*tangada uchraydigan barcha yozuvlar, qisqartirilgan so'zlar, aloxida xarflarning atamasi*) deb ataydi. Suratlarga kelsak odatda podsholar, xudolar surati zarb qilinadi va bu suratlar davlatning yoki podshoxning muxrini aks ettiradi.

Numimzmatika birinchi navbatda KOLLEKSIYa tarzida shakllangan va rivojlangan. Bu xol ilk bor Italiya uygonish davrida boshlanga. Yunoniston va Rimda bu xol kizikish va xobbiga aylangan¹.

Tanikli kolleksionerlardan eng yirik namoyondalaridan biri italyan shoiri F.Petrarka (1304-1374) edi. Uning butun Dune mamalakatlaridan yigilgan minglab tangalari bulgan. Shuningdek Kozimo Medichi xam kolleksioner bulib u kariyb mln.ga yakin tangani uz kulidan utkazgan.

XVI asrda Yevropa saroylarida 950 dan ortik numizmatika zallari yaratilganligi aniklangan. Xozirgi kunda xam tangashunoslik muzeylari mavjud.

¹ E.Rtveladze. O'rta Osiyoning qadimgi tangalari.,T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987, 12-bet.

XVI asra Yevropada numizmatikaga oid ilmiy asarlar, kitoblar yaratilgan.Jumladan:

Y.Ekkel (1737-1798)Vena universiteti arxeologi, professor ilmiy numizmatikaga asos solgan. U antik tangalarni tarixiy-geografik nuktai-nazardan 70.000 tangani tadkik kilgan va tizimlagan. Shular asosida 8 tomlı «Kadimgi tangalar haqida» (Nauka o drevnix monetax) kitobini yozgan.

Ungacha esa 1517 yilda Andreo Fulvio, italiyan olimi «Mashxur shaxslar tasviri»,

1533 yilda esa Gilom Ruli «Yanada tanikli shaxslar tasvirlari», ularning xayotidan kiska satrlarga bagishlangan kitob yozgan.

I.Lelelev tomonidan yozilgan 3 tomlı «O'rta asrlar numizmatikasi» 1835 yil. Yozilgan.

XIX asr o'rtalarida udavlarda XIII tomlı «O'rta asr Yevropa tangalari» kitobi nashriyoti rejalshtirilgan bulib, uning 1-tomi 1986 yilda nashrdan chikkan.

Shark tangalari tavsifini yaratgan, asli Germaniyalik, Rossiya akdemiyasi akademigi, kozon universiteti professori Xristian Martin Fren (1782-1851)bulib, uning kollektiviyasida 3 mln.ga yakin tangalar bor. U Ekkel ishini davom ettirib «Shark numizmatikasi knyazi» nomini olgan.

Rus tangashunosi Aleksey Vasilevich Oreshnikov (1855-1933) «Kadimgi nus tangalari» kitobinashr etilgan. Shuningdek Edvard Vasilevich Rtveladze 1942 tugilgan. ToshDUDA ukigan.arxeolog numizmat. 70 dan ortik arxeologik kazishmalarda ishtirok etgan. 1987 yil nashr etilgan.

Har qanday tarix tarixiy manbalar asosida yaratiladi. Tarixiy manbalar moddiy yoki ma'naviy bo'lishi mumkin. Jumiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini o'rganishda moddiy manbalarning o'rni juda katta hisoblanadi.

Tanga - ana shu kabi moddiy manbalar sirasiga kiradi. Tunga (pul) bozor munosabatlarini tartibga soluvchi bir buyum bo'ladigan bo'lsa, uning iqtisodiy ahamiyati juda kattadir.

Qadimda topilgan numizmatik materiallar asosida jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayoti o'rganilgan. Qolaversa, numizmatika fani boshqa yordamchi tarix fanlari bilan uzviy bog'liq.

Qadimshunos – arxeologlar ekspeditsiyalar natijasida tanga topishadi. Bu tanganing metal parchasi yoki boshqa jismdan farqli ekanligini numizmatlar aniqlaydi. Lingvistlar tanga sirtidagi yozuvlarni o'qisa, xronologlar tanga zARB qilingan davrni o'rganishadi.

Emitent – tangazarb qildirgan shaxs. Tangada u kim tomonidan zARB qilinganligi aks etgan bo'ladi. Tanganing qiymati va ishlatalish imkoniyatlariga qarab uning jamiyat iqtisodiy-ijtimoiy hayotidagi o'rni va roli belgilanadi.

Tangalar qadimdan zARB qilinaboshlanid va o'rta asrlarda butun yer yuzi bo'ylab tarqaldi. O'rta asrlarda numizmatikaga bo'lgan qiziqish shu qadar ortdiki, hatto yevropada minga yachin tangalar jamlangan zallar paydo bo'ldi. Numizmatikaning o'ziga xos kolleksionerlari, knyazlari paydo bo'ldi.

Umuman olganda numizmatika fani orqali ijtimoiy hayotning hamma sohasini o'rnaish, tadqiq qilish va ilmiyxulosa chiqarish mumkin.

ILOVALAR

1-ilova

Numizmatikaning yordamchi tarix fanlari bilan bog'liqligi (ilovaga karang)

- Arxeologiya – kadimshunoslik haqidagi fan. Tangalarni asosan arxeologlar topadi.
- Xronologiya – Tangalarning zarb kilingan davri yili aniqlanadi.
- Paleografiya – tangalardagi yozuv va xarflarni o'rganadi, o'qiydi.
- Lingvistika – tanga yozuvlari asosida usha davr tilshunosligini urganadi. Etnografiya – tanganing usha davr axolisi turmushidagi axamiyatini urganadi. Iktisodiyoti.
- Geneologiya – podsholar, iloxlar tasvirlari. Ularning shajarasi. (Yunona, yevtimed, Yevropa kirollari karl, ...)
- Toponimika – tanga zerb kilingan shaxar, davlat, xudud joy nomlarini aniklaydi. (Vaxshuvar Amudaryo xazinasi, Yevropa shaxarlari, Italiya, Keln, Frantsiya...kemalar tasvirlari.)
- Metrologiya – tanganing kiymati. Funt, lira, Sum, dinor, groshta....

Umumiy o’rta ta’lim maktablarida Tarix fanidan “Numizmatika – yordamchi tarix fani sifatida” mavzusi asosida tashkil etilgan dars ishlanchasi.

Darsning maqsadi.

a).Darsning ta’limiy jihat:

Fanning predmeti, tushunchasi, maqsad va vazifalarini yoritish, mavzuning dolzarbliji va bugungi kundagi ahamiyatini tushuntirish orqali talabalarga milliy g’oyani shakllantirish. Talabalarga numizmatikani ilmiy asosda turli manbalar va adabiyotlar yordamida tahlil qilishni tushuntirish, bu fanning boshqa yordamchi tarix fanlari bilan o’zaro bog’liqligini tushuntirib o’tish va shu orqali yangi bilimlar berish.

b).Darsning tarbiyaviy jihat:

Mavzuning xarakteridan kelib chiqib talabalarni Vatanga va tinchlikka sodiqlik, el – yurt g’amida yashash, osoyishtalikni qadrlash his - tuygu’sini shakllantirishdan iborat.Shuningdek, tanga va pulning xalq turmush sharoitida, iqtisodiy hayotida naqadar muhimligini ilmiy va tabiiy usullar orqali tushuntirish. Pulning qadri, qiymati bugungi jamiyat hayotidagi o’rni va ahamiyatini isbot va dalillar asosida talabalar ongiga singdirish, Vatan deb atalgan oilaga mansubligini his etib yashash, mehr – shafqat vositasida estetik, siyosiy, diniy tarbiyani rivojlantirish.

v).Darsning rivojlantiruvchi jihat:

Xilma – xil uslubdan foydalangan holda, mashg’ulotda talabalarning barchasini jalb etib, mavzuga oid ko’rsatma quollar, texnik vosita – slaytlardan foydalanish orqali mavzuni turmush bilan bog’lash, talabani o’z ustida ishlashga o’rgatish

Darsning turi:

Aralash, yangi materiallarni bayon qilish mustahkamlash topshiriqlar berish.

Dars uslubi:

Yangi pedagogik texnologiyaga asoslangan ma’ruza darsi.

Dars jihozи.


Darsning jihoziga slaydlar, siyosiy xarita, internet xabarlari, yangi kitoblar.

Darsning borishi.

Ma’ruza bayoni.

YaNGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA

"Tarmoqlar" (Klaster) metodi



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. - T: O'zbekiston, 2003.
2. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. - T: O'zbekiston, 1993.
3. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. - T: O'zbekiston, 1993.
4. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy – ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. - T: O'zbekiston, 1995.
5. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild, - T: O'zbekiston, 1996.
6. Karimov I.A. Vatan sajdahoh kabi muqaddasdir, 3-jild, - T: O'zbekiston, 1996.
7. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T: O'zbekiston, 1997.
8. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. 7-jild. - T: O'zbekiston, 1998.
9. Karimov I.A. "O'zbekiston buyuk kelajak sari". T: "O'zbekiston", 1998 y.
10. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. - T: Sharq, 1999.
11. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. – T: O'zbekiston, 2000.
12. Karimov I.A. YUksak ma'naviyat – yengilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2008. – B.172.
13. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: o'zbekiston, 2011. – B.340.
14. Axmedov B. O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari. - T. O'qituvchi, 1991.

15. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchilik tarixi. - T.: SHarq, 2001.
16. Ayupova F. Qadimiy tangalar // Moziydan sado, - № 1-2, 2000.
17. Belyakov A.S. Numizmatika. – Moskva: MGU, 1990.
18. Vvedeniye v spetsialnye istoricheskiye dissipliny. – Moskva: MGU, 1990.
19. Ziyoev H. Tarix – o'tmish va kelajak ko'zgusi. - T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000.
20. Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi. - T.: O'qituvchi, 1994 .
21. Jo'rayev N. Tarix falsafasi. - T.: Ma'naviyat, 1999.
22. Jo'rayev N. Agar ogoh sen.... - T.: YOzuvchi, 1998 .
23. Rtveladze E. Drevnye monety Sredney Azii. - T.: 1991.
24. Sa'diyev A.S. O'zbekiston xalqlari tarixini o'qitish. - T.: O'qituvchi, 1993.
25. To'xliyev N. O'zbekiston Respublikasi. (Ensiklopedik ma'lumotnomasi). - T.: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2002.
26. Tolibov R. YOrdamchi tarix fanlari (ma'ruzalar matni) – Navoiy,2007.
27. Fengler.X., Unger V. Slovar numizmata. – Moskva, 1982
28. Fedorov – Davyidov Monety rasskazlavayut. – Moskva: Pedagogika, 1990.
29. SHoniyozov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. - T.: SHarq, 2001.
30. Ernazarova T., Kognev R. Tangalar o'tmish darakchilari. – Toshkent, 1977.
31. O'zbekiston tarixini o'qitish va o'rganishning yagona konsepsiysi. - Toshkent, 1996.
32. O'zbekiston tarixinining dolzarb muammolari. Davriy to'plam №2. - T.: SHarq, 1999.

33. O'zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. - T.: SHarq, 2000.
34. O'zbekistonning yangi tarixi. Uchinchi kitob. Mustaqil O'zbekiston tarixi. - T.: SHarq, 2000.
35. G'ulomov YA. Qadimgi madaniyatimiz izlaridan. - T.: Fan, 1960.
36. // "Moziydan sado", 2001, №3(11) son.
37. / "Jamiyat va boshqaruv", 2005 – 2006 yil barcha sonlari.
38. // "Xalq ta'limi" jurnali
39. // "Xalq so'zi" gazetasi